



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty



2025-yil 10-iyul
payshanba

№ 28 (4722)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

HAFTA YANGILIKLARI:

O'zbekiston – BRICS hamkori

Braziliyada bo'lib o'tgan BRICSning 17-yuqori darajadagi sammitida Indoneziya guruhning yangi a'zosi sifatida qabul qilindi. Shuningdek, o'nta davlat, jumladan, O'zbekiston va Qozog'iston tashkilotning hamkor davlatlari sifatida rasman tan olindi.

Ma'lumot uchun, BRICS dastlab 2009-yilda Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy yetakchilarining ilk sammitida shakllangan edi. Keyinchalik Janubiy Afrika a'zo bo'ldi. Shu kunga qadar Misr, Efiopiya, Eron, BAA va Indoneziya to'liq a'zolikka qabul qilindi.

23 yil kutilgan kun

Futbol bo'yicha O'zbekiston ayollar milliy jamoasi 23 yillik tanaffusdan so'ng Osiyo kubogi yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Osiyo kubogi saralash bosqichidan o'rin olgan hal qiluvchi bahsda O'zbekiston ayollar jamoasi Nepalga qarshi maydonga tushdi. O'zbekiston uchrashuvni yaxshi boshlab, 10-daqiqaga kelib ikkita gol urishga muvaffaq bo'ldi. 24-daqiqada esa raqib javob to'pini kiritdi. 39-daqiqada Maftuna Shoyimova penaltidan unumli foydalanib, hisobdagi farqni yana ikkita taga yetkazdi.

Reglamentga ko'ra, jamoalarning ko'rsatkichlari bir xil bo'lib qolgani uchun Osiyo kubogi yo'llanmasi sohibi penaltilar seriyasida aniqlandi. Unda esa omad O'zbekistonga kulib boqdi – 4:3.

Portlovchi va zaharli moddalar aylanmasiga talablar kuchaytirildi

O'zbekistonda portlovchi va zaharli moddalar bilan bog'liq faoliyatga qo'yiladigan talablar kuchaytirildi — 2025-yil 1-avgustdan bunday moddalarni ishlab chiqarish, saqlash va tashish uchun litsenziya FVV bilan kelishilgan holda beriladi.

Hujjat bilan yonish va portlash xavfi bo'lgan muhitni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar, shuningdek, ayrim zaharli moddalar aylanmasini tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi tasdiqlandi.

KIBERJINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH UCHUN



Namangan viloyati IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan Namangan shahrida joylashdan «Sardoba» bozori va «Megapolis» savdo majmuasida aholining kibermadaniyatini yuksaltirishga va fuqarolar o'rtasida kiberjinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan sotuvchi va xaridorlarga kiberjinoyat tushunchasi, bank kartasi ma'lumotlarini begonalarga bermaslik, turli soxta mukofotlar va aksiyalar haqidagi xabarlariga ishonmaslik bo'yicha ma'lumotlar berildi.

O'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

TEXNIK ISLOHOTLAR

DAVR TALABIGA HAMOHANG

Ichki ishlar vazirligi sohaviy xizmatlarini o'z vaqtida, sifatli hamda arzon narxlarda kompyuter jihozlari bilan ta'minlash maqsadida IIV Moliya va moddiy-texnika ta'minoti departamenti Harbiy tuzilmalar faoliyatini ta'minlash boshqarmasida kompyuter jihozlarini yig'ish ishlari yo'lga qo'yildi. Ayni paytda sohaviy xizmatlardan kelib tushgan texnik talablarga muvofiq kompyuter jihozlarining ehtiyot qismlari shartnoma asosida xarid qilinib, malakali mutaxassislar tomonidan yig'ilmoqda.

(Davomi 2-betda.)



 TEXNIK ISLOHOTLAR

DAVR TALABIGA HAMOHANG

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Kompyuter jihozlari yig'ishining afzalliklari shundaki, birinchidan, talabdan kelib chiqqan holda buyurtmachilar istagan variantda mahsulotlar yetkazib berilsa, ikkinchidan, narxlar ancha hamyonbop bo'lishi. Eng muhimi, buning sifatga hech qanday ta'sir qilmasligidadir.

– Maxsus o'quv kurslarida mutaxassis xodimlarning malaka va bilimlari oshirildi. Ular qulay sharoitda mehnat qilishi uchun zamonaviy talabga mos tarzda jihozlangan xonalar ajratilib, ish stolari va maxsus kiyim-boshlar bilan ta'minlandi. Ish jarayonini sifatli va uzluksiz tashkil etish maqsadida mutaxas-

sislarga kunlik yo'riqnomalar va xavfsizlik choralari doimiy ravishda yetkazib borilmoqda, – deydi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'mirlash bo'limi boshlig'i, leytenant G'ulomjon Kulinov.

Kelgusida ishlab chiqarish faoliyatini yanada kengaytirish maqsadida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi kutilmoqda. Qolaversa, mamlakatimizdagi davlat tashkilotlari va idoralari ham ta'minlash bo'yicha ish olib borilmoqda. Boshqacha aytganda, joriy yil yakuniga qadar o'n mingga yaqin buyurtmalarni bajarish maqsad qilingan.

Yana bir muhim jihat e'tiborga molik. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida mavjud bo'lgan har qanday turdagi toifalangan obyektlarning perimetrini texnik



jihatdan qo'riqlash uchun mo'ljallangan «Qo'rg'on» texnik qo'riqlash jamlanmasi hozirgi kunda Harbiy tuzilmalar faoliyatini ta'minlash boshqarmasi harbiy xizmatchilari tomonidan mahalliy ravishda ishlab chiqarilmoqda. Ushbu texnik qo'riqlash vositalari zamon talabiga to'la mos ravishda, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlab

chiqarilgan. Uning tarkibida mavjud bo'lgan intellektual kameralar inson omilini sezilarli darajada kamaytirib, obyektlarda ishonchli va sifatli jangovar xizmatni amalga oshirishda asosiy vosita bo'lib kelmoqda.

Abror POYONOV,
maxsus muxbir.
Ikrom HASANOV
olgan suratlar.


 PROFILAKTIK TADBIR

O'RGANISHLAR, TAHLILLAR, NATIJALAR

Urganch tumanida «Yurt tinchligi – xalq farovonligi sari» keng qamrovli tezkor profilaktik tadbiri o'tkazildi. O'n kun davom etgan mazkur tadbirda asosiy e'tibor kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilashga qaratildi.

Tadbir davomida 3163 ta aholi xonadoni, 601 ta dala-hovli, 572 ta savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonasi ko'zdan kechirildi. Bundan tashqari, 523 nafar muqaddam sudlangan, 397 nafar probatsiya hisobida turgan, 106 nafar alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan shaxs bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazildi.

E'tiborli jihati, o'tgan yillardan buyon ochilmay kelayotgan 6 ta jinoyat fosh etildi. Tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan 6 nafar shaxs qo'lga olinib, jazo muqarrarligi ta'minlandi. Bedarak yo'qolgani uchun qidirilayotgan 3 nafar shaxs tezkor surishtiruvlar davomida topildi. Bulardan tashqari, tezkor tadbirlar davomida 32 ta jinoyat tezkor xodimlar tashabbusi bilan aniqlanib, gumonlanuvchi shaxslar hibsga olindi. Shundan 12 tasi giyohvandlik, 5 tasi qonunga xilof ravishda valyuta ayirboshlash,



4 tasi qo'shmachilik, 1 tasi firibgarlik, 3 tasi poraxo'rlik, 3 tasi energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish, 1 tasi odam savdosi, 1 tasi noqonuniy qurol saqlash, 1 ta ma'muriy nazorat qoidasini buzish holatlaridir. Olingan tezkor ma'lumotlar asosida 2 nafar shaxs o'z xonadonida 129,5 gramm giyohvandlik vositasini saqlab qo'ygani aniqlandi. Xuddi shuningdek, fuqaro M.O. tumandagi «G'oybu» mahallasi hududida jinoyat ustida qo'lga olindi. Tezkor qidiruv xizmati xodimlari uning cho'ntagida 14,02 gramm heroin giyohvandlik vositasi borligini aniqlashdi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan 442 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlandi. Shundan 142 tasi jamoat xavfsizligiga qaratilgan qonunbuzarliklar bo'lib, 28 nafar shaxs ma'muriy qamoqqa olindi. 44 nafar shaxs tibbiy hushyorxonaga, 20 nafari narkologiya dispanseriga, 2 nafari ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasiga, 14 nafar bola Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirildi.

«Xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalar hududiga 52 ta, savdo obyektlariga 27 ta, ko'ngil-

ochar maskanlarga 15 ta, xonadonlarga 14 ta, gaz va yoqilg'i quyish shoxobchalariga 7 ta hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatish obyektlariga 38 ta videokuzatuv kamerasi o'rnatilib, kuzatuv markaziga integratsiya qilindi.

– Tadbir davomida 191 ta notinch oilaning 118 ta muammolari ijobiy hal etildi, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik Kamol Adambayev. – Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 24 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Sog'ligida muammosi bo'lgan 37 nafar ayol tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, zarur davo muolajalari belgilandi.

Tadbir davomida aholining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida joylarda profilaktik-targ'ibot uchrashuvlari o'tkazildi. Jinoyat va huquqbuzarliklar hududlar kesimida mahalla ahli ishtirokida muhokama qilinib, ushbu noxush holatlarga sabab bo'lgan omillar atroflicha tahlil etildi. Xizmat vazifasini lozim darajada bajarmagan, kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ullarga nisbatan tegishli tartibda intizomiy jazo choralari ko'rildi.

Tadbir davomida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, probatsiya, yo'l harakati xavfsizligi, patrul-post hamda qo'riqlash xizmatlari xodimlari tomonidan ham samarali ishlar tashkil etildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

TAYINLANDILAR

**Polkovnik
Murodov
Oybek Xudayberdiyevich**

Qashqadaryo viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i o'rinbosari – Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Idirov
Ilxom Toxirovich**

Sirdaryo viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i o'rinbosari – Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchisi lavozimiga.

**Polkovnik
Iminov
Ziyod Galibovich**

Toshkent viloyati IIB boshlig'i o'rinbosari – Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi boshlig'i lavozimiga.

**Polkovnik
Xubbimov
Nizom Rabbimovich**

Toshkent viloyati IIB boshlig'i o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Axunov
Akbarjon Po'latjonovich**

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Jaloldinov
Rustam Zuxurdinovich**

Andijon viloyati Marhamat tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Arziyev
Sardorbek Anvarovich**

Andijon viloyati Shahrixon tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Qurbonov Baxronjon
Ismatilloevich**

Navoiy viloyati Navbahor tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Polkovnik
Abduhomidov Sobirjon
Abduvohobovich**

Namangan viloyati Namangan shahar IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Mustafoqulov
O'ktam Yodgorovich**

Surxondaryo viloyati Uzun tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Choriyev
Sodiq Baxrom o'g'li**

Surxondaryo viloyati Termiz tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

**Podpolkovnik
Raxmetov
Jasurbek Abdullayevich**

Xorazm viloyati Urganch tumani IIB boshlig'i lavozimiga.

BILIB QO'YGAN YAXSHI

FUQAROLIK BILAN BOG'LIQ MASALALAR

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun 9 ta bo'lim, 45 ta moddadan iborat bo'lgan. Mazkur Qonun 2020-yil 13-martda yangi tahrirda qabul qilindi va 10 ta bob, 58 ta moddani tashkil etdi.

E'tiborli jihat, qator yo'nalishlarda amaldagi qonunchilikka o'zgartishlar kiritildi. Jumladan, Qonun-ning 6-moddasi bilan, 1995-yil 1-yanvarga qadar mamlakatimiz hududiga kirib kelgan va doimiy propiskadan o'tgan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan hamda ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar fuqaroligi bo'lmagan shaxsni respublikamizda yashash guvohnomasi asosida yashab turgan shaxs istak bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish tartibi joriy qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi asosida ushbu Qonunga:

– 2005-yil 1-yanvarga qadar yurtimizda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi;

– o'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar mamlakatimizda kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi;

– ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston



Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va respublikamizda yashab kelayotgan bola xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinishi;

– Qonunning 5-moddasi ikkinchi qismida hamda mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan faktlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchi ushbu faktlarni sud tartibida aniqlashi mumkinligi belgilangan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Bulardan tashqari, qonunning 20-moddasiga muvofiq, chet davlat fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan vatandoshga nisbatan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga sodalashtirilgan tartibda qabul qilish joriy etildi.

IV M va FRBB Fuqarolik masalalarini ko'rib chiqish bo'limi.

USTOZ –SHOGIRD AN'ANALARI

MEHR NURI YOG'AR DOIM...

IIV Markaziy poliklinikasi jarrohlik bo'linmasi oftalmolog-shifokor Nodira Sobirova mana 37 yildan buyon shu dargohda xizmat qilib kelmoqda. Uzoq yillik samarali xizmat tajribali shifokorni elga tanitdi. Hozirgi kunda uning o'nlab shogirdlari bo'lib, ular ustozni jon-dildan e'zozlaydi.

Eng yaqin shogirdlaridan biri ushbu poliklinikada 15 yildan buyon oftalmolog shifokor lavozimida ishlayotgan Nargiza Ashrafxonovadir.

– Nodira opaga biz yoshlar havas qilamiz. Kasbimizga doir nimaiki tushunmovchilik bo'lsa, ustozimizdan so'rab turamiz. U kishiga o'xshab hurmatli bo'lib yurishni orzu qilaman. Bu niyatlarimni bilgan ustozimning qo'li doim duoda, – deydi Nargiza Ashrafxonova.

**Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.**



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ИҚТИСОДЧИЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ТАНИҚЛИ ВАКИЛИ

Бугун замонавий қаҳрамон образини яратиш, аввало, улар шахсини ўрганиш, замондошлари билан суҳбатлашиш, хуллас, ички ишлар тизимида машхур шахслар феномени билан қизиқиш менга меҳрини, бор билими ва тажрибасини бериб, устозлик қилган иқтисодчи-молиячилар сулоласининг сардори, соҳага бекиёс хизмати сингган истеъфодаги полковник, «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган иқтисодчи» фахрий унвони соҳиби, вазирлик Фахрийлар кенгаши аъзоси Ўткир Ахмедов ҳақида мулоҳазаларимни ёзишга ундади.

Шайх Саъдийнинг «Ота меҳридан устоз жабри улуғроқ туради» деган пурмаъно сўзларию ҳазрат Навоийнинг ҳурмати учун ҳатто подшоҳ унинг қаршисида отдан тушиб, таъзим бажо айлагани тўғрисидаги ривоятлар ҳам қадим-қадимдан устозларнинг қадрлангани, эъзозланганидан далолатдир. «Устоз сўзи муқаддас, устоз номи улуғдир» дейишади машойихлар. Яна халқимизда «Яхшидан боғ қолади», деган ҳикмат ҳам бор. Не бахтки, ўзидан эзгу ном, истеъдодли шогирдлар қолдираётган замондошларимиз Ўзбекистонда кўплаб топилади. Ўткир Ахмедов ана шундай самимий алқовларга лойиқ инсонлардан саналади.

Нафсиламрини айтганда, устознинг тизимдаги фаолияти осон кечмаган. Мустақилликнинг илк кунларидан бошлаб, биринчи навбатда, республикамиз ички ишлар органларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, ходимларни иш ҳақи ва бошқа харажатлар билан тўлиқ, узлуксиз ва ўз вақтида таъминлаш муаммоси юзага келганди. Табиийки, бу ҳудудимиздаги ИИБга тегишли барча мол-мулк, техника, қурол-аслаҳа ва бошқаларни собиқ иттифоқ юрисдикциясидан олиниб, Ўзбекистон Республикаси ИИБ юрисдикциясига ўтказилиши би-

лан боғлиқ эди. Ўткир Аширматович кўпни кўрган, ҳаёт гирдобларига тортилган, хизмат ўташнинг сир-асрорларини чуқур билган инсон сифатида бу жараёнда фаол иштирок этди.

Хусусан, ўзим ИИБ тизимида касбий фаолиятимни бошлаган 1996 йилдан бошлаб Ўткир Ахмедовнинг молия-хўжалик тизимини яхшилаш бўйича барча саъй-ҳаракатларига гувоҳ бўлганман. Устоз тиним билмасди, доимо изланарди. Керак бўлса, ҳар куни, ҳар дақиқа молия-хўжалик фаолияти самарадорлигини ошириш йўллари кидирарди.

Устоз раҳбарлигида Ички ишлар вазирлиги Молия-иқтисод бошқармаси ходимлари мамлакатимизда амалга оширилган кенг қамровли ҳуқуқий ислохотларда фаол иштирок этганликларини таъкидлашни истардим.

Ўн йил давомида Ўзбекистон Республикаси ИИБ Ижтимоий ва молиявий таъминот хизмати бошлиғининг ўринбосари – Молия-иқтисод бошқармаси бошлиғи лавозимида самарали хизмат қилган полковник Ўткир Ахмедов ўз шогирдларига пул-молия муносабатларини бошқариш учун пухта илм ва ҳалоллик керак, деб ўғит берарди. Ҳар бир ходим ўз хизмат вазифасидан тўғри фойдалана билиши, уни фақат Ватан



ва хизмат манфаатлари йўлида ишлатиши зарурлигини ёшларга англатишдан чарчамасди. Шунинг учун ўзига ҳам, қўл остидагиларга ҳам бирдек талабчан устоз шогирдлар қалбидан жонқуяр инсон, эътиқодига содиқ раҳбар, моҳир мураббий сифатида жой олди.

Ҳа, Ўткир Ахмедов молиячи, таъминотчи раҳбар ўлароқ, энг қийин ва мураккаб шароитларни сабот билан енгиб ўтиб, тўғри қарорлар қабул қилиш қобилиятини ҳаётда исботлаган довурак, жасур инсон. Республика ички ишлар органлари тизимидаги салмоқли фаолияти мобайнида миллатимиз тинчлиги, осойишталиги, Ватанимиз равнақи ва саодати йўлида сидқидилдан хизмат қилиб, бугун ҳам бошқарув соҳасидаги бой тажрибасини ёш раҳбар ходимларга сингдириб келмоқда. Устоз мартабасига эга бўлган Ўткир Ашурматович сиймосида ҳуқуқ-тартибот органларининг

молия-иқтисод тизимида хизмат қилаётган ходимлари уни ўзининг катта устози, деб билишади.

Ўткир Ашурматовичнинг сермазмун ҳаёт йўли ИИБ тизимида, биз шогирдларнинг кўз ўнгида ўтди. У ўзининг устози, ички хизмат полковниги Николай Вон Чирович Цой мактабида таълим олган. Бу инсоннинг умр зар-варақлари жиноятчиликнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш, ёш авлодга таълим-тарбия бериш, ёшларнинг ўсиб-улғайиши учун ғамхўрлик қилиш; меъморий-бунёдкорлик ишларини амалга оширишга, соҳавий хизматлар жамоаларининг маиший турмушини яхшилашга йўғрилди.

Ибратли оила соҳиби сифатида фарзандларини иймон-эътиқодли, таълим-тарбияли қилиб вояга етказди. Уларнинг барчаси худди оталари каби элу юрт хизматида камарбаста.

Қувонарлиси, бугунги кунда ҳам лавҳамиз қаҳрамони халқ билан бирга, ёшлар орасида. Бой хизмат ва ҳаётий тажрибасини уч авлод учрашувларида, кенг жамоатчилик вакиллари, фахрийлар ва ёшлар иштирокида ўтказилаётган маънавий-маърифий тадбирларда ходимларимизга улашиб келмоқда.

Қутлуғ 70 ёшни қаршилаётган устозимиз Ўткир Ахмедовга бундан кейинги ҳаётида ҳам бардавом сиҳат-саломатлик, ёшларга хос тетиклик ва неклик тилаб қоламиз.

Алишер АБДУЛЛАЕВ,
ИИБ Академияси Молия ва
моддий-техника таъминоти
бошқармаси бошлиғи,
полковник.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

FAOLIYAT SAMARADORLIGINI KO'ZLAB

Jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, shu jumladan, jazoni ijro etish muassasalarida tartib-intizomni mustahkamlash sohadagi har bir bo'g'inning samarali faoliyatiga bog'liq. Ushbu tizimdagi navbatchilik qismlari xodimlari aynan shu vazifani kun-utun mas'uliyat bilan bajarib kelmoqda. Ularning xizmat natijadorligi tegishli moddiy-texnika bazasiga, zamonaviy transport vositalari va uskunalar bilan ta'minlanganlik darajasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.



Yaqinda mazkur bo'g'inning harakatchanligini oshirish va favqulodda holatlarda tezkor harakat qilish imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida muhim qadam qo'yildi. Xususan, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 10 dona «Damas» avtomobili xarid qilindi.

Ushbu avtoulavlar manzil koloniyalarning navbatchilik qismlariga topshirildi. Bu esa mazkur muassasalaridagi ichki tartibni yanada mustahkamlash, mahkumlar xavfsizligini ta'minlash, zarurat tug'ilganda esa tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Sadriddin XAYRULLAYEV,
leytenant.

МОЛОДЕЖЬ – НАШЕ БУДУЩЕЕ

«НЕ ПОДВЕДУ НАСТАВНИКОВ»

– говорит выпускница Академии МВД 2025 года старший лейтенант Сабина Камолова.



В этом году Академию МВД Узбекистана по дневной форме обучения по восьми специальностям окончили 696 курсантов. 19 из них вручены дипломы с отличием. Сабина Камолова – в их числе. Кроме того, ей досрочно присвоено специальное звание «старший лейтенант».

Сабина уверенно идет к поставленной цели – стать высококвалифицированным следователем. С выбором профессии девушка определилась еще в период обучения в Бухарском академическом лицее МВД.

– Убедена, что в свое время приняла верное решение, поступив в Академию, – отмечает Сабина. – Под началом опытных наставников постигала тонкости отраслей юридической науки, приобрела необходимые практические навыки.

Отличной учебой, участием в деятельности Совета одаренных курсантов С. Камолова подавала личный пример. Под руководством доктора юридических наук, профессора Мавжуды Ражабовой она опубликовала статьи по проблемам уголовного и уголовно-исполни-

тельного права. В конкурсе на лучшую публикацию, проходившую в минувшем году среди студентов вузов стран СНГ, Сабина заняла первое место. Активно изучала русский, английский языки, получила международные сертификаты по турецкому и арабскому языкам. За свои достижения была отмечена нагрудным знаком «Академия аълочили», а в 2023–2024 учебном году удостоилась чести стать стипендиаткой министра внутренних дел республики.

...Быстро пролетели годы учебы. Старший лейтенант Сабина Камолова ныне направлена в УВД Бухарской области.

– Приложу максимум усилий, чтобы не подвести наставников, – говорит наша героиня.

Рафик ЕНИКЕЕВ.

СЫРДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ

ЧТОБЫ ПУТЕШЕСТВИЕ БЫЛО ПРИЯТНЫМ

Вокзал в городе Гулистане всегда оживлен. Пассажиры с багажом снуют по перрону. Вот молодая женщина с несколькими детьми, обремененная чемоданами, спешит к своему вагону. У ребят за спиной рюкзаки – вся семья отправляется в дорогу.

Инспектор профилактики станции «Гулистан» ОПП Управления обеспечения безопасности на транспорте области капитан Бобир Каримов, как обычно, наблюдает за процессом досмотра багажа в пункте пропуска. Выяснилось, что семья направляется в Хорезмскую область, чтобы провести лето у бабушки. Глава семьи – военный, несет службу в Сырдарьинской области. Пожелав попутчикам счастливого пути, капитан Каримов продолжил наблюдение за происходящим.

... Согласно оперативной информации, на междугородних маршрутах действуют двое карманников. В связи с этим сотрудники усилили меры безопасности. По имеющимся ориентировкам, они – уро-

женцы Ташкентской области. Их не раз замечали на поездах, курсирующих между Ташкентом и Хавастом, однако официальных заявлений от граждан не поступало.

Вспоминая подобные случаи, капитан Каримов отметил, как несколько лет назад на вокзале Гулистана им были задержаны двое юношей, только достигших совершеннолетия. Те пытались вытащить телефоны и деньги из сумок пассажиров. Позже выяснилось, что оба – из неблагополучных семей Ферганской области, нигде не учились и не работали.

– Сегодня люди стали мобильнее: путешественники, трудовые мигранты, студенты – все спешат в разные уголки страны, – говорит капитан Каримов.



– Наша задача – сделать так, чтобы дорога запомнилась только приятными моментами и была для них безопасной.

В этом направлении налажено тесное взаимодействие с отделом кинологии Сырдарьинского областного УВД.

Кинологи со служебными собаками практически ежедневно проводят осмотр вокзального комплекса. Совместно с ними капитан Каримов ведет профилактические мероприятия, направленные на выявление запрещенных веществ и

потенциальных угроз. Все действия выполняются профессионально, без создания лишних неудобств для граждан.

Абдурахмон
МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Фото Абу КЕНЖАЕВА.

◀ «O'ZBEKISTON BO'YLAB SAYOHAT QIL!»

MAROQLI HORDIQ,
UNUTILMAS TAASSUROT

Yaqinda Navoiy viloyatida joylashgan 7532-harbiy qismning bir guruh harbiy xizmatchilari Samarqand shahriga sayohat qilib u yerdagi me'moriy-madaniy obidalar bilan tanishdi.



Qashqadaryo viloyatidagi 7533-harbiy qism harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari esa Shahrisabz tumanidagi «Oqsaroy» majmuasi va «Miraki ekoturizm» dam olish markazida bo'lishdi. Dastlab milliy davlatchiligimiz tarixida o'zining beqiyos o'rni bilan mashhur tarixiy majmua faoliyati bilan tanishildi. So'ng harbiylar va ularning oila a'zolari ekoturizm markazida ko'ngilochar dasturlarda faol qatnashib, mazmunli hordiq chiqarishdi.

**IIV Qorovul qo'shinlari
qo'mondonligi axborot
guruhi.**

◀ YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

AYOL E'ZOZGA LOYIQ

– Tumanning olis qishloqlaridan tortib markazgacha turli vaziyatlarda yordam so'rab kelgan ayollarning ko'nglida achchiq ko'z yoshlar, quvonch va umid yashiringan, – deydi Qo'shrabot tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Muhabbat Mo'minova. – Hali turmushga chiqmagan, yosh xodimman. Lekin qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga alohida yondashaman. Akademiyada olgan ijtimoiy psixologik bilimlarim ana shunday holatlarda asqatadi. Ayol oilasida e'zozlansa, jamiyatda hurmat topadi.

Bulung'ur tumanida tug'ilib o'sgan Muhabbat Mo'minova dastlab tumandagi 2-umumta'lim maktabi, keyin IIV Samarqand akademik litseyini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 2021-yilda IIV Akademiyasini tugallab, ilk xizmatni Qo'shrabot tuman IIBda boshladi.

Inspektorning vazifasi faqat rasmiy ish yuritishdan iborat emas. U ayollarning dardini eshitadi, ularning muammosiga hamdard bo'ladi, hayotida yangi yo'l ochishda yordam qo'lini cho'zadi. Ba'zan bir jinoy



ishning oldini olishda yoki bir oilani saqlab qolishda uning maslahatlari va qat'iy qarori hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

– Muhabbat yosh xodim bo'lishiga qaramay, ayollar hayotiga yorug'lik olib keluvchi nurdek, – deydi Qo'shrabot tuman hokimining o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Sohiba Mahmudova. – Uning mehr bilan aytilgan har bir so'zi ko'plab xotin-qizlarni yanada

kuchli, irodali bo'lishga chorlab, ishonch bag'ishlaydi. Biz hamkorlikdagi faoliyatimiz davomida insoniylik, sharqona qadriyatlarni targ'ib qilish, oila va nikohning muqaddasligi, farzandlar tarbiyasida mas'uliyat, oilada ayolning o'rni xususida targ'ibot tadbirlarini o'tkazamiz. Bunda u o'z hayotiy qarashlari, fidoyiligi, mehri va qat'iyatligini suhbatdoshiga namoyon etib, shaxsiy namuna bo'la olishini alohida ta'kidlash joiz.

◀ QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

ZUKKOLIKNI NAMOYON ETIB

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi tashabbusi bilan «Zakovat» nodavlat notijorat tashkiloti hamkorligida Nukus shahrida o'tkazilgan «Zakovat Quiz» intellektual o'yinida Qurolli Kuchlar, huquqni muhofaza qilish idoralarida xizmat qilib kelayotgan xodimlardan iborat 10 ta jamoa ishtirok etdi.

Natijalarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi o'yin davomida faol ishtirok etgani va savollarga eng ko'p to'g'ri javob topgani uchun faxrli 1-o'ringa munosib deb topildi.

Bundan tashqari, «Yoshlar oyligi» mobaynida vazirlik tizimidagi yoshlar o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etib, bir qancha natijalarni qo'lga kiritishdi. Xususan, Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi IIV yosh xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Kelajak o'yinlari» kibersport musobaqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV jamoasi 1-o'rinni olganligi yana bir yuqori ko'rsatkichimiz bo'ldi.

**Qadirbay YUSUPOV,
kapitan.**



Qahramonimiz kichik jussasiga katta mas'uliyatni yuklab, ayollar haq-huquqlarini himoya qilishda o'zini qalqon deb biladi. Bilmaganlarini hamkasblaridan so'rashdan uyalmaydi. Ustozi viloyat IIB JXX HPB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Nigora Yodgorova unga doimo maslakdosh. U o'z ustida ishlashni, xorijiy tillarni o'rganishni yaxshi ko'radi. Sevimli mashg'uloti kitob mutolaasi.

– Jeyms Klirning «Atom odamlar» kitobini o'qib tugatib, hozirda turk adabiyotidan «Ichingdagi shayton» asarini o'qiyapman, – deydi qahramonimiz. – Ishim har qancha ko'p bo'lmasin, o'zimga qat'iy rejalar tuzib olganman. Har oyda ikkita asar mutolaa qilishim kerak.

Leytenant Muhabbat Mo'minovaning har bir kuni ayollar hayotini yaxshilash, xonadonbay o'rganishlar, suhbatlar va muammolar yechimini izlash bilan o'tadi. U ayol oilada e'zoz topsin, degan aqida bilan harakat qiladi. Bu ayollar baxti uchun kurash, mehr va jasorat namunasidir.

**Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Samarqand viloyati.

HAMKORLIKDA HIKMAT KO'P

Namangan tumani aholi soni bo'yicha viloyatda uchinchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik hisoblanadi. Ipakchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Qolaversa, keyingi yillarda tumanda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilib, qishloq va mahallalarning qiyofasi yangilanmoqda.




JINOYATDAN XOLI MAHALLALAR

197 ming aholi istiqomat qiladigan tumandagi 53 ta mahalla fuqarolar yig'ini-da tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashda profilaktika inspektorlari – kapitan Bahrom Madaminov, katta leytenant Eldorbek Akbarov, leytenantlar Azamat Saydullayev va Jamshidbek Jo'rayevning alohida xizmatini e'tirof etish joiz. O'rganishlar natijasida o'tgan yil yakuni bo'yicha «qizil» toifada qol-

gan «Anjirzor», «Sho'rqishloq», «Qo'qonqishloq» va «Kaykovus» mahallalarida bu yil birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Tumanning aholi gavjum joylari va ko'p sonli aholi istiqomat qilayotgan mahallalarida yuz qiyofasini tanib oluvchi videokuzatuv kameralari orqali yil boshidan buyon yigirmadan ortiq jinoyat va huquqbuzarliklar fosh qilindi.



XALQ XIZMATIDA

Tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linma boshlig'i, mayor Elyorbek Qodirovning aytishicha, joriy yilning o'tgan davrida 8484 nafar shaxsga yangi ID kartalar, 2759 nafar fuqaroga xorijga chiqish biometrik pasportlari rasmiylashtirib berilgan.

Yil boshidan buyon pasport yo'qotganlik holati bo'yicha 429 nafar fuqarodan arizalar kelib tushgan.

Bo'linma tomonidan 992 ta hovli-joy va xonadonlarda yashovchi 2847 nafar fuqaroning pasport tizim qoidalariga rioya qilishi bo'yicha tekshirishlar o'tkazilgan. Mavjud qoidalarni buzgan 517 nafar fuqaro ma'muriy javobgarlikka tortildi.



ANIQ DALILLAR ASOSIDA

Tergov bo'linmasida katta tajribaga ega bo'lgan mahoratli tergovchilardan biri bo'linma katta tergovchisi, kapitan Akmalxo'ja Mamadxo'jayev sanaladi.

Uning sa'y-harakati bilan ko'plab jinoiy holatlar fosh qilinib, jazo muqarrarlari ta'minlangan.

– Tergovchi aniq dalillar asosida jinoyatni fosh etish uslubini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Uning to'g'ri

qaror qabul qila olishi juda muhim. Chunki tergovchining qarori zahirida inson taqdiri bor, birgina xato qimmatga tushishi mumkin, – deydi Akmalxo'ja.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Akmalxo'ja Mamadxo'jayev joriy yil boshidan beri 67 ta jinoyat ishini tergov qilib, 8 tasini ochishda ishtirok etdi, uning tashabbusi bilan 2 nafar qidiruvdagi shaxs ushlendi.

Bo'linma tergovchilari tomonidan joriy yilda 216 ta tergov harakatlari olib borilib, tegishli tartibda jinoyat ishlari qo'zg'atildi. Qolaversa, boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan yuborilgan 36 ta ish tergov qilindi.



DOIM SHAY HOLATDA

– Mahallalarga o'rnatilgan videokuzatuv kameralari Navbatchilik qismiga integratsiya qilingan. Bu esa kelib tushgan murojaatlarni tezkor hal etish imkoniyatini yaratmoqda, – deydi tuman IIB Tashkiliy bo'linma boshlig'i, katta leytenant Azizbek Meliboyev.

Navbatchilik qismida xizmat mashinasi shay holatda turib, voqea joyiga uzog'i bilan 10 daqiqada yetib boradi. Bu jinoyatlarni sohasiy xizmatlar bilan hamkorlikda «issiq izida» fosh etish imkonini bermiqda.

IJTIMOY KO'MAK BERILMOQDA

Tuman IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan 350 nafar nazorat ostidagi shaxsning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish, ularning qayta jinoyatga qo'l urishining oldini olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida bu toifadagi shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar tashkil etib kelinmoqda.

– Joriy yil boshidan bugunga qadar 3 nafar fuqaroga chorvachilik yo'nalishida o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun ijtimoiy yordam paketlari ajratildi, – deydi Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Muzaffar Toshpo'latov. – Shuningdek, 2 nafar tibbiy yordamga muhtoj nazoratdagi shaxs xonadonida tibbiy ko'rik o'tkazildi. Qandli diabetga chalingan nazorat ostidagi shaxsni davolash choralari muntazam ravishda ko'rib kelinmoqda.



Sahifa materiallarini Namangan viloyati bo'yicha o'z muxbirimiz Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.

УЧЕБНЫЕ КУРСЫ

ЧЕСТЬ И ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА – ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ

В рамках реализации Национальной программы образования в области прав человека в Республике Узбекистан на постоянной основе организуются учебные курсы по борьбе с применением пыток. Они предназначены для сотрудников органов, осуществляющих доследственную проверку, дознание, предварительное следствие, а также для работников учреждений по исполнению наказания и судей.



Очередные межведомственные курсы на тему «Борьба с применением пыток: международная практика и национальный опыт» прошли в Ташкентской области. В них приняли участие представители следственных подразделений, уголовного розыска, службы профилактики, учреждений по исполнению наказания ОВД, прокуратуры, судебной системы. Среди спикеров были специалисты Национального центра Республики Узбекистан по правам человека, Академии и Института повышения квалификации МВД, Правоохранительной академии, Института государства и права АН, международные эксперты.

– Рассмотрены сущность и содержание Конвенции ООН против пыток, жестоких, бесчеловечных

или унижающих достоинство видов обращения и наказания, Факультативного протокола к данной Конвенции, а также международные стандарты содержания под стражей, гарантии прав заключенных, в том числе нашедшие отражение в законодательстве Узбекистана, – говорит доктор юридических наук, профессор, полковник Алимжан Матчанов. – По завершении курсов участники прошли тестирование, успешно завершившим обучение вручены сертификаты. Аналогичные курсы в ближайшее время запланированы к проведению в Бухарской и Самаркандской областях.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

В КАРАУЛЬНЫХ ВОЙСКАХ

ПОВЫШАЯ КВАЛИФИКАЦИЮ

В Объединенном учебно-полевом центре Командования Караульных войск МВД завершились курсы повышения квалификации для военнослужащих, организованные совместно с Институтом повышения квалификации МВД. По итогам обучения участникам были вручены соответствующие сертификаты.

На торжественном мероприятии заместитель командующего войсками полковник Даврон Ашуров подчеркнул значение подобных учебно-методических сборов, способствующих укреплению теоретических знаний, практических навыков и профессиональ-

ного потенциала личного состава.

Сертификаты о завершении курсов были вручены 30 военнослужащим рядового и сержантского составов, проходящим службу по контракту в различных воинских частях и подразделениях.

Соб. корр.



ФЕРГАНСКАЯ ОБЛАСТЬ

НА ПУТИ ИСПРАВЛЕНИЯ

Начальник ОВД Кувинского района подполковник Дониёржон Рахмонов и его заместители провели встречу с 72 юношами и девушками, состоящими на профилактическом учете и взятыми на поруки.



Мероприятие включало ознакомление с выставкой современной техники и специальных средств, используемых в работе органов внутренних дел. Для участников была организована ярмарка вакансий, направленная на содействие в трудоустройстве.

Особый интерес вызвали площадка правовой консультации, передвижной медицинский пункт и выставка книг. Руководители отдела внутренних дел провели с молодежью беседы, в ходе которых дали советы по недопущению

правонарушений и преступлений, обсудили способы защиты от различных угроз и негативных влияний.

В рамках встречи также были рассмотрены обращения молодежи. Три из одиннадцати поступивших вопросов решены на месте, остальные – взяты на контроль для поэтапного решения.

Активным участникам встречи вручены книги в качестве поощрения.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

XODIMLARNING IJTIMOIY HIMOYASI DOIMIIY E'TIBORDA

Ijtimoiy himoya davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim, eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki odamlarning turmush tarzi, kayfiyati, amalga oshirilayotgan islohotlarga munosabati qanday bo'lishi, avvalo, ular qay darajada ijtimoiy himoyalanganligi bilan bevosita bog'liq.

Prezident raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu yil ijtimoiy himoya bo'yicha qilingan 34 ta muhim yangilikka qo'shimcha 28 ta yangi tashabbusning ilgari surilgani aholini ijtimoiy himoya qilish davlatimiz oldida turgan eng muhim va eng dolzarb vazifa hisoblanishining yana bir isboti bo'ldi.

Yurtboshimizning g'amxo'rliqi, ehtiyojmand oilalardagi muhitni, kayfiyatni yaxshi bilishi natijasida ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalalar bo'yicha butunlay yangi tizim yaratildi. Xususan, «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi ishga tushirilib, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish boshlandi. Ochiqlik, tenglik, adolat tamoyillariga qat'iy amal qilish vazifasi belgilandi. Bir

vazifalarini bajarish chog'ida qahramonlik hamda jasorat namoyon etgan xodimlarni va ularning oila a'zolarini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Chunonchi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hayot uchun yuqori xatarga ega ekanligini inobatga olgan holda, ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish hamda ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlash maqsadida Prezidentimizning qator qaror va farmonlari qabul qilindi. Xususan, «Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 29-noyabr qaroriga muvofiq, xodimlarga davolanishi uchun, betob yaqin qarindoshlari (ota-ona-



so'z bilan aytganda, mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha izchil islohotlar samarali olib borilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi bugungi kun talablari sharoitida terrorizm va jinoyatchilikka munosib qarshilik ko'rsatgan, xizmat

si, turmush o'rtog'i, farzandlari)ni operatsiya qildirish, ortopedik oyoq kiyim va protez-ortopedik mahsulotlar bilan ta'minlash xarajatlarini qoplash uchun, sanatoriy-kurort muassasalarida davolanish va dam olish uchun hamda to'ylar va dafn marosimlarini o'tkazish uchun moddiy yordam ko'rsatish hamda pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alar berish yuzasidan mablag'lar ajratish masalasini ko'rib chiqish tegishli komissiyalar tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Hech shubhasiz, xalqimiz sizlarni o'z hayotini el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdek olijanob ishga bag'ishlagan, muqaddas qasamyodiga sodiq insonlar deb biladi va mashaqqatli xizmatingizni munosib e'tirof etadi.

Shavkat MIRZIYOYEV

Ichki ishlar organlari tizimida ijtimoiy himoya qilishning quyidagi shakllari mavjud:

- uy-joy bilan ta'minlash yoki yashash sharoitini yaxshilash;
- ijtimoiy (moddiy) yordam ko'rsatish;
- yengil avtotransport vositalarini sotib olish uchun Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida qarz berish;
- oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish;
- mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rmini qoplash;
- xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tashkilot va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish natijasida qilingan xarajatlarni qoplab berish;
- xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan yoki halok bo'lganda bir martalik nafaqa tayinlash;
- terrorizmga va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan, shuningdek, xizmat davomida yuqori natijalarga erishgan xodim va harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning alohida tartibini belgilash;
- tibbiy-sanitariya, tibbiy-ijtimoiy yordam va sanatoriy-kurort ta'minoti;
- xodim va harbiy xizmatchilarning farzandlarini IIV tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joylashtirish hamda bolalar dam olish va sog'lomlashtirish maskanlariga yuborish.

Chunonchi, xodimlar ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash davrida qonunchilikda belgilangan me'yor, navbat va imtiyozlarni inobatga olgan holda, umumiy asoslarda davlat tomonidan uy-joy bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Ichki ishlar organlari xodimlarini uy-joy bilan ta'minlash yoki yashash sharoitini yaxshilash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: xizmat xonadonlari bilan ta'minlash; imtiyozli shartlar va narxlarda ipoteka krediti (turarjoyning dastlabki badali) ajratish asosida turarjoy bilan ta'minlash; foizsiz qarz berish; «tayyor holda topshirish» shartlarida uy-joy bilan ta'minlash; ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun pul kompensatsiyasini to'lab berish shular jumlasidandir.

Quvonarlisi, 10 yildan ortiq xizmat qilgan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olishlari uchun ajratiladigan dastlabki badal pullari 25 foizdan 35 foizga, har oylik ijara puli kompensatsiyalari esa 20 foizga oshirilishiga erishildi.

Tizimda besh yildan ortiq xizmat qilgan, xizmatda samarali natijalarga erishgan va uy-joy bilan ta'minlanmagan hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat hisobiga turarjoy bilan ta'minlanish yoki turarjoy sharoitlarini yaxshilash huquqiga ega bo'lgan xodimlarga imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari asosida turarjoy sotib olish (qurish) uchun dastlabki badal ajratiladi.

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida yengil avtotransport vositalarini sotib olish uchun ham qarz beriladi. Qarz ichki ishlar organlarida amaliy xizmat staji 10 yildan ortiq bo'lgan, xizmatda samarali natijalarga erishgan xodimlarga mamlakatda ishlab chiqarilgan yengil avtotransport vositalarini sotib olish uchun 3 yil muddatga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasida ajratiladi.

Xodimlarning farzandlarini kvota asosida davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga hamda Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi «Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Shuningdek, xodim va harbiy xizmatchilar yoki ularning yaqin qarindoshlarining mol-mulkiga yetkazilgan zarar xodim va harbiy xizmatchilarning xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yetkazilgan taqdirdagina qoplanadi. Xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan xodim va harbiy xizmatchilar, kursant va tinglovchilarga yoki halok bo'lgan xodim va harbiy xizmatchilar, kursant va tinglovchilarning oila a'zolariga bir martalik nafaqa to'lab beriladi.

Nodirjon BAZAROV,
IIV MMI va KBTD

Ijtimoiy himoya boshqarmasi
bosh inspektori, mayor.



Maqolani qoraqalpoq tilida ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.



МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

ДОСТИГНУТА
ДОГОВОРЕННОСТЬ

Делегация во главе с первым заместителем главы департамента общественной безопасности провинции Шэньси Китайской Народной Республики Янь Шанвэем, прибыв в Узбекистан, ознакомились с деятельностью органов внутренних дел и посетила ГУВД города Ташкента.



Члены делегации побывали в информационном мультимедийном центре. На них произвело большое впечатление освещение деятельности столичного ГУВД, налаживание прямой связи с населением, своевременное доведение информации и сообщений до общественности.

Коллеги из Поднебесной осмотрели музей «Шон-шараф», созданный в Главном управлении. Ознакомились с его экспонатами, рассказывающими об истории создания системы внутренних дел, сотрудниках, погибших при исполнении служебного долга. Гости высоко оценили то, как бережно хранится память о них.

Делегация побывала в Центре единого оперативного управления ГУВД, ознакомились с условиями и методами работы, современными технологиями, используемыми в целях предотвращения преступлений и правонарушений. Гости положительно оценили проводимую здесь работу.

В конце визита достигнута договоренность об обмене опытом и налаживании дальнейшего сотрудничества. Встреча прошла в теплой и дружественной обстановке.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.
Фото Икром ХАСАНОВА.



САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

ЦИФРОВОЙ ЩИТ
ПРАВОПОРЯДКА

Информационная безопасность, защита служебных данных, автоматизация учета и аналитики — все это давно стало неотъемлемой частью работы органов внутренних дел. В УВД Самаркандской области за это направление отвечает отдел цифровых технологий и правовой статистики. Его главным специалистом является подполковник Одилжон Каримов — человек, стоящий у истоков цифровой трансформации в региональной системе ОВД.

После окончания Академии МВД в 2011 году О. Каримов начал службу инспектором профилактики в махаллах Мехнат и Темирийулчилар города Самарканда. Это были одни из самых непростых участков, где он получил первый и очень важный профессиональный опыт.

— Моим наставником был старший лейтенант Азиз Мамедов. Он всегда делился знаниями и был для меня настоящим примером, — вспоминает подполковник О. Каримов.

В 2015 году был переведен в экспертно-криминалистический отдел УВД области. Там освоил новую для себя сферу — работу с вещественными доказательствами и проведение различных экспертиз.

В ходе службы приходилось участвовать в допросах, обысках, выезжать на осмотры мест преступлений и в суды. Большая часть работы проходила также в специа-



лизированных лабораториях. В ЭКО проработал вплоть до 2021 года.

Сегодня деятельность подполковника О. Каримова связана с куда более технической, но не менее ответственной сферой. В отделе, где он трудится, работают 14 специалистов. На них возложена задача по обеспечению цифровой безопасности, защите служебной информации, а также разработке и внедрению современных подходов к хранению и анализу правовой статистики.

— Важным направлением работы является интеграция информационной инфраструктуры органов внутренних дел в единую систему, — поясняет он. — Это позволяет оперативно оценивать криминогенные ситуации, находить взаимосвязи и принимать обоснованные решения. Проводится масштабная работа по систематизации архивных данных, автоматизации отчетности, внедрению электронных инструментов. Все это — шаги к тому, чтобы служба стала более эффективной, а информация — более защищенной.

Деятельность подполковника Каримова не ограничивается служебными обязанностями. В 2022 году вышла его книга «Садоқат билан...» («С преданностью...»), посвященная становлению и развитию органов внутренних дел Самаркандской области, подвигам сотрудников, ветеранам службы и современным представителям профессии. Недавно вышел сигнальный номер его новой книги — «Такризлар», в которой представлены краткие содержания произведений узбекской и мировой литературы для сотрудников органов внутренних дел.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

XODIMNING BIR KUNI

MAYDA ZARRALARDAGI KATTA HAQIQATLAR

Bugungi lavhamiz qahramoni Navoiy viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti, kapitan Javlon Fayziyev. U sohada qariyb 10 yillik kasbiy tajribaga ega, jinoyatlarni ochishga munosib hissa qo‘shib kelyapti. Shuningdek, ko‘plab targ‘ibot tadbirlarida ham faol ishtirok etadi.

– Ekspert-kriminalistika sohasi yo‘nalishida IIV Akademiyasida tahsil oldim. Xizmatimiz mas’uliyatli, ammo qiziqarli voqealarga va hodisalarga juda boy, – deydi lavhamiz qahramoni.

Suhbatimiz shu o'ringda uzildi. U navbatchi xodim sifatida tergov-tezkor guruhi tarkibida voqea joyiga chiqib ketdi. Olingan xabarga ko'ra, Navoiy shahrining «Janubiy» ko'chasida joylashgan avtoturargohdagi fuqaroning mashinasidan qimmatbaho buyumlar hamda ko'p miqdordagi pul o'g'irlangan ekan.

Kapitan Javlon Fayziyev avtomashinadan olingan daliliy ashyolarni laboratoriyada ekspertiza tekshiruvidan o'tkazdi. U ichimlik



idishidagi qo'l barmoq izla-
rini daktiloskopik tekshiruv-
dan o'tkazish chog'ida gu-
mon qilinuvchining shaxsini
aniqladi. O'g'ri qanchalik
ustasi farang bo'lmasin,
Javlon Fayziyevning tad-
qiqotlari natijasida uning
jinoyati fosh etildi.

Shu kuni Javlon Fayziyev yana ko'plab tadqiqotlarni o'tkazdi. Bundan tashqari, navbatchi bo'lgani uchun tungi nazorat-reyd tadbirida ham qatnashdi. Shubhali shaxslar va huquqbuzarlarning shaxsiga aniqlik kiritishda yana daktilos-



kopik ekspertiza qo'l keldi. So'ng markazda ekspertiza tadqiqotlari o'tkazishda davom etdi. Ertasi kuni ertalab uning navbatchiligi yakuniga yetdi. Kun avvalida

boshlagan ishlarini tugatib, ekspertiza xulosalarini tergovchilarga taqdim etdi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

MAHALLA TINCH – YURT TINCH

O'ZIMIZDAN CHIQQAN RAIS

Gulzoda Norboyeva Guliston tumani «Terakzor» mahallasida yashaydi. Uch nafar farzandi bor. Turmush o'rtog'i ham, o'zi ham ishsiz edi. Shu bois oilada tez-tez mojaro chiqib turardi. Qish adog'ida mahalla raisi Xudoyor Anorqulov ularning uyiga bir qancha odamlarni boshlab keldi. Hovlisiga olti sotixli issiqxona qurib berishdi. Uy bekasiga esa tikuv mashinasi taqdim etildi.

Uzzukun bekor yotadigan er
issiqxonaning ichini chopdi, ekdi,
sug'ordi. Xotini mahalladagi che-
var ayolga shogird tushdi. Oradan
olti oy o'tgach, mehnatlari samara
bera boshladi. Issiqxonadan teril-
gan qop-qop bodringning bozori
chaqqon bo'ldi. Mahalladagi ayol-
lar esa Gulzodaga turli bichimdagi
ko'yaklarni buyurtma bera bosh-
ladi. Tabiiyki, ro'zg'orga baraka
kirdi. Mojarolar barham topdi. Bu
qariyb o'n yildan beri shu mahalla-
da raislik qilayotgan soha faxriysi,
iste'fodagi katta serjant Xudoyor
Anorqulovning amalga oshirgan
ezgu ishlaridan bir misol. Uning
tashabbusi bilan mahalladagi o'n-
lab mana shunday xonadonlarda
yakka tadbirkorlik faoliyati yo'lga
qo'yilgan.

Xudoyor Anorqulov ilk xizmat faoliyatini 1993-yilda Yangiyer shahar IIB Qo'riqlash bo'limi inspektori vazifasidan boshlagan. Yosh xodimni tarbiyalashda bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Tolib Tojiyevning o'rni katta bo'ldi. O'sha paytlarda Yangiyer shahrida bir qancha savdo bazalari mavjud

bo'lib, ularda kimyoviy o'g'itlar, akkumulyatorlar va boshqa turli tovarlar saqlanardi. Savdo bazalarini jinoiy guruhlardan himoya qilish esa Qo'riqlash bo'limi zimmasida edi. Shunday kezlarda Xudoyor mahsulotlarni o'marishga

uringan bir qancha jinoiy guruh a'zolarini qo'lga olishda faol ishtirok etdi.

Xudoyor Anorqulov keyinchalik Guliston tumani IIB VSH inspektori, tuman IIB Tashkiliy bo'limi hisobga olish va qayd qilish bo'linmasi inspektori lavozimlarida xizmat qildi. 2013-yilda pensiyaga chiqdi.

2015-yil mahalladoshlari uning ko'p yillik xizmatlarini inobatga olib, mahalla raisi etib saylashdi. Mana, qariyb o'n yildirki, el xizmatida. E'tiborlisi, u mahalla raisi etib saylangandan beri mahallada birorta jinoyat sodir etilmadi.

– Xudoyor aka o‘zi ichki ishlar organlari tizimidan chiqqani uchun ishni kriminogen vaziyatni sog‘lomlashtirishdan boshladi, – deydi mahallada yashovchi fuqaro Sherqul Komilov. – Uning rahbarligida ish-sizlar ish bilan ta‘minlandi. Mahalla faollari ishtirokida notinch oilalarni muhokama qilish yo‘lga qo‘yildi. Qo‘ni-qo‘shnilar ahillikka chaqirildi. Ana shunday ishlar tufayli bugun mahalla ahli osoyishtalikda, hamjihatlikda hayot kechirmogda.

Xudoyor aka baxtli oila sohibi. U turmush o'rtog'i bilan 4 nafar farzandni voyaga yetkazgan. Hozirda 7 nabiraning bobosi. Bayramlarda shogirdlari tez-tez yo'qlab turishadi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА СОТРУДНИКОВ – В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

Социальная защита — один из важнейших приоритетов современной государственной политики. От степени защищенности граждан зависят уровень их жизни, настроение, доверие к реформам и устойчивость общества в целом.

На видеоселекторном совещании под председательством Президента, посвященном итогам реализации приоритетных задач на 2025 год, глава государства озвучил 28 новых предложений, до-

ный реестр социальной защиты» осуществляется адресное выявление и поддержка нуждающихся семей. Особое внимание уделяется принципам открытости, справедливости и равенства. Продолжает-

ренних дел, проявивших самоотверженность и мужество при выполнении служебных задач, а также членов их семей. В этом направлении приняты указы и постановления Президента. Например, постановление от 29 ноября 2017 года «О мерах по коренному совершенствованию порядка работы с кадрами органов внутренних дел».

В соответствии с этим документом, сотрудни-

Вопрос: В каких случаях сотрудники исключаются из списка нуждающихся в жилье или улучшении жилищных условий?

Ответ: В следующих случаях:

- при обеспечении жильем в соответствии с социальными нормами жилой площади, установленными законодательными актами;
- при выделении льготного долгосрочного ипотечного кредита на приобретение (строительство) жилья;
- когда сотрудник или его супруг(а) имеют право собственности на личное жилье;
- при получении служебного жилья после постановки на учет по месту службы или при переводе на новое место службы;
- при увольнении из органов внутренних дел или выходе на пенсию;
- в случае смерти сотрудника по обстоятельствам, не связанным с выполнением служебных обязанностей.



полнив 34 уже намеченные задачи. Это свидетельствует о последовательной

ся реализация программ по повышению занятости, росту доходов населения,

Вопрос: В каких формах осуществляется обеспечение жильем или улучшение жилищных условий сотрудников органов внутренних дел?

Ответ: Это осуществляется в следующих формах:

- предоставление служебных квартир;
- обеспечение жильем на основе льготных условий и цен по ипотечному кредиту (первоначальный взнос за жилье);
- предоставление беспроцентного займа;
- обеспечение жильем по принципу «под ключ»;
- выплата денежной компенсации за аренду (найм) жилья.

приверженности государства вопросам социальной поддержки.

В стране внедрена новая система социальной защиты. На базе информационной платформы «Еди-

развитию системы здравоохранения, усилению социально-политической активности женщин.

Системная работа ведется и в отношении сотрудников органов внут-

кам и членам их семей оказывается поддержка в таких направлениях, как лечение, в том числе хирургическое, обеспечение ортопедическими и протезно-ортопедическими средствами, лечение и отдых в санаториях, оказа-

Вопрос: На каком основании сотрудники органов внутренних дел обеспечиваются жильем в период прохождения службы?

Ответ: Жилье предоставляется государством на общих основаниях, с учетом норм, очередности и льгот, установленных законодательством.

ние материальной помощи и организация ритуальных мероприятий.

Сотрудники, ветераны органов внутренних дел, а также курсанты (слушатели) образовательных учреждений МВД закре-

плены за медучреждениями системы МВД и имеют право на бесплатное медицинское обслуживание в амбулаторных и стационарных условиях.

Действуют следующие основные формы социальной поддержки:

- обеспечение жильем или улучшение жилищных условий (служебное жилье, ипотека, беспроцентные займы, аренда с компенсацией);
- предоставление кредита на покупку отечественного автомобиля сроком на 3 года по ставке рефинансирования ЦБ;
- оказание материальной помощи, включая экстренные и социально значимые случаи;
- рекомендации для поступления в высшие и

или гибели при исполнении;

– медико-санитарная, медико-социальная помощь и санаторно-курортное обеспечение;

– определение детей сотрудников и военнослужащих в дошкольные образовательные учреждения, находящиеся в ведении МВД, организация их отдыха в детских оздоровительных лагерях.

Так, размер начального взноса на покупку жилья для сотрудников со стажем свыше 10 лет увеличен с 25 до 35 процентов. Повышен на 20 процентов и размер компенсации за аренду жилья.

Постановлением Президента от 26 февраля 2019 года и Положением, утвержденным Кабинетом Министров 4 июля 2022 года, детально регламентированы меры по обеспечению детей сотрудников правом на получение рекомендаций для поступления в учебные заведения силовых структур.

Социальная поддержка в системе МВД охватывает все ключевые аспекты жизни сотрудников и их семей, включая лечение, жилье, образование, материальную помощь и моральное признание заслуг.

Нодиржон БАЗАРОВ,
майор.

средне-специальные учебные заведения;

- возмещение ущерба имуществу, если он нанесен при исполнении служебных обязанностей;
- единовременные выплаты в случае ранения

TUNLARNI TONGLARGA ULAB

Joriy yil boshidan buyon viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlari ishtirokida 106 ta jinoyat ochildi. Shundan 64 tasi bevosita PPX xodimlari tomonidan ochilgan bo'lsa, 42 tasi ularning tashabbusi bilan aniqlandi. Shu bilan birga, batalyon xodimlari 156 ta jinoyatning oldini olishga muvaffaq bo'lishdi. Bundan tashqari, qidiruvda yurgan 13 nafar va bedarak yo'qolgan 28 nafar shaxsni aniqlab, ichki ishlar organlariga topshirishdi. Ana shunday ko'rsatkichlarga erishishda jonbozlik ko'rsatgani uchun 87 nafar xodim vazirlikning tegishli me'yoriy buyruqlari asosida PPX batalyon komandiri tomonidan rag'batlantirildi.

2025-yilning o'tgan davri mobaynida Buxoro va Kogon shaharlarida hamda Shofirkon, Vobkent, Romitan, Jondor, Qorako'l va Olot tumanlarida huquqbuzarlik sodir etgan 12181 dan ziyod shaxsga nisbatan qonunda belgilangan choralar ko'rildi. PPX naryadi a'zolari sutkaning istalgan paytida, har qanday ob-havo sharoitida, hatto sog'liqlarini, hayotlarini xavf ostida qoldirib

bo'lsa ham, aholiga yordam berishga shay turishadi.

Shu yilning 3-iyun kuni 18:00larda Buxoro shahridagi Amir Temur nomli mahallaning M.Iqbol ko'chasida joylashgan ko'p qavatli uylarning birida o'g'rilik jinoyati sodir etilganligi yuzasidan xabar olindi. Batalyon inspektori, katta serjant J.Amonov va haydovchi, safdor F.Hamroyevlar voqea joyiga yetib kel-



ganda, shahar IIOFMB xodimlari ham endigina surishtiruv ishlarini boshlashgan ekan.

Jabrlanuvchi bilan olib borilgan surishtiruv jarayonida katta serjant J.Amonov bir narsaga e'tibor qaratdi. Chunki uning 9 million so'm naqd pullari borligini ijaradosh dugonasi R.Noila (ismi o'zgartirildi) ham ko'rganini va u kelsa dugonasi chiqib ketganini, qo'ng'iroq qilsa gaplashmaganini aytgandi. Shu bois osoyishtalik posboni zudlik bilan R.Noilaning tashqi ko'rinishi va taxminan qayerda bo'lishini so'rab bilib oldi.

Gumonlanuvchi asli g'ijduvonlik ekan. Ammo u hozir tumanida emas, aksincha, ovqatlanish uchun biror bir kafeda o'tirgan, degan taxminga borib, shu atrof-dagi yemakxonalarni birma-bir ko'zdan kechirishadi. Osoyishtalik posbonlari adashmagan edi. R.Noila tamaddi qilayotgan payti ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Yana bir misol. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-

ning 122-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etib, tergovdan yashiringanligi uchun G'ijduvon tumani «O'zanon» mahallasida yashovchi, 1985-yilda tug'ilgan I.Q.ga nisbatan qidiruv e'lon qilingan edi. PPX batalyoni MMIB o'rinbosari, mayor X. Zayniyev va 1-tumanlararo otryad inspektori, safdor X. Qazoqovlar tomonidan olib borilgan qidiruv tadbirlari natijasida u yashiringan joyi – Navoiy viloyati hududida qo'lga olindi.

PPX batalyonining hushyor xodimlari faoliyati davomida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Ular hududiy profilaktika inspektorlari, jinoyat qidiruv, tergov organlari xodimlari, YPX inspektorlari, ekspert-kriminalistlar bilan baqamti ishlashmoqda. Turli sohaviy xizmatlarning bunday o'zaro hamkorligi huquqbuzarliklarning oldini olishda, jinoyatlarni tezkorlik bilan ochishda o'z samarasini bermoqda.

Quvvat YARASHOV,
podpolkovnik.
Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



QILMISH – QIDIRMISH

ONA DEGAN NOMGA ISNOD

Yengil-yelpi hayotni afzal bilgan qarshilik Ma'mura Qoriyeva (ism-shariflar o'zgartirildi) joriy yil mart oyida o'g'il farzandli bo'ldi. Og'irning ustidan, yengilning ostidan yurishga odatlangan emasmi, kim bilan gaplashmasin, o'zining yolg'iz ona ekanini, bolalarini boqish uchun qiynalayotganini aytib, uch oylik chaqalog'ini sotishini bildirdi.

Ayolning bolasi taqdiriga befarqligini bilgan tanishlari uni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'lishdi. Ammo ayol ularning gapiga quloq ham solmadi, niyatidan qaytmadi. Har gapning ora-

sida bola kerak emasligini, uni tashlab ketmoqchiligini ayta boshladi.

Oradan ikki hafta o'tib, bolaga «xaridor» topildi. Telefon orqali suhbat paytida Ma'mura unga «Bolalarimni boqishga qiynalyapman. Sog'lig'im ham joyida emas. Shuning uchun, agar sizga bola kerak bo'lsa, sotaman» degan taklifni o'rtaga tashlaydi. Tabiiyki, «xaridor» bola uchun qancha pul berishi zarurligini so'raydi. Ma'mura esa hali og'zidan ona suti ketmagan go'dakni 375 million so'mga sotmoqchiligini bildiradi...

Ma'mura hali to'rt oylik ham bo'lmagan chaqalog'ini «xaridor»ga 1000 AQSH dollari va 87 million


300 ming so'mga sotgan vaqtida viloyat IIB TQX Jinoyat qidiruv boshqarmasi va Kitob tumani Ichki ishlar bo'limi tezkor xodimlari tomonidan ushlandi.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksi-ning tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Hayotda kimdir tirnoqqa zor, kimdir esa... Anig'i shuki, mo'may pul ilinjida o'z jigargo'shasini sotishga jazm qilgan, muqaddam sudlangan M.Qoriyevaning qilmishi ona degan nomga isnod, insonga mutlaqo yot xislat.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



«DOLZARB 90 KUN»

OROMGOHLARDA
TARG'IBOT TADBIRLARI

Farg'onada ham «Dolzarb 90 kun» loyihasi keng quloq yoydi. Ayni paytda viloyatda 14 ta statsionar va 114 ta kunduzgi oromgoh mavjud bo'lib, bir mavsumda 37 800 nafar o'quvchi qamrab olinmoqda.

Rishton tumanining bahavo «Qo'rg'oncha» mahallasida joylashgan «Rishton» oromgohi faoliyati bilan yaqindan tanishish jarayonida yuqoridagi ijobiy fikrlarimizning isbotini ko'rdik.



– Dam olish maskanimiz 2023-yilda tashkil topgan, – deydi mazkur oromgoh direktori Akmaljon To'raqulov. – Yildan-yilga sharoitlarni yaxshilab boryapmiz. Oromgoh hududidagi 4,5 gektar yer maydonida 1000 tupdan ortiq manzarali, 300 tupdan ortiq mevali daraxt borligi yozning jazirama kunlarida ham salqin iqlim bo'lishini ta'minlab beriyapti. Shu bois bizning oromgohda ta'tilni o'tkazishni istovchi o'quvchilar soni ortib bormoqda. Joriy yilgi yoz mavsumida 12 kundan iborat 5 bosqichli jarayonda 600 nafar bolani sog'lomlashtirishni rejalashtirib olganmiz. Kuni kecha birinchi bosqichda dam olgan 120 nafarga yaqin bolajonlarimiz xursand holda o'z uylariga qaytishdi.

Tashkillanayotgan mashg'ulotlarni kuzatib,



chindan ham bu yerda zerikishga o'rin yo'q ekanligiga guvoh bo'ldik. 12 kun – 12 xil mavzu. Masalan, «Harbiy vatanparvarlik kuni»da harbiylashtirilgan estafeta va ommaviy sport turlari bo'yicha musobaqalar, huquqiy targ'ibot tadbirlari tashkillanadi. Shu bilan birga, «Zakovat», «Ijod va iste'dod», «Ona tabiatni asrash», «Mohir qo'llar», «Yosh arxitektor», «Millatlar do'stligi», «Turizm va o'lkashunoslik» to'garaklari muntazam faoliyat ko'rsatyapti.

– Toshkent shahridan kelganmiz. Ibrohim, Ismoil, Iskandar ismli uch nafar o'g'lim bor. Ular bu yil ham ta'tilni o'tkazish uchun «Rishton» oromgohini tanlashdi, – deydi oromgohda dam olayotgan farzandlarini ko'rgani kelgan Zuhaxon Rajapova. – Mendan ko'pincha «Poytaxtga yaqin shuncha oromgohlar turib, nega «Rishton»ni tanlaysiz?» deb so'rashadi. Men ularga erinmay, bu oromgohning bahavo hududda joylashgani hamda ish yuritish uslubi namunaligi ekanligini misollar yordamida aytib beraman.

Tuman IIBning inspektor-psixologlari hamda viloyat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining targ'ibot guruhi tomonidan oromgohda ko'plab targ'ibot tadbirlari tashkil etilayotgani bolajonlarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qilyapti.

Masalan, yaqinda bo'lib o'tgan «Yashil chiroq» musobaqasida bolajonlarning yo'l qoidalariga oid bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi. Mavzuga oid ko'rgazmalar va amaliy mashg'ulotlar ertamiz egalarining mavzuga oid bilimlarini yanada mustahkamladi.



KASB FIDOYILARI

XAVFLI JINOYATCHINI
TO'XTATIB QOLISHDI

Katta leytenant Ulug'bek Ochilov Beshariq tumanida tug'ilib o'sgan. Hozirda Marg'ilon shahar IIB 3-sonli mahalla huquq-tartibot maskanida profilaktika inspektori lavozimida ishlaydi.

2015-yildan buyon sohada faoliyat yuritib kelayotgan lavhamiz qahramoni yaqinda hamkasbi, leytenant Qahramonjon Qurbonov bilan birga qurollangan jinoyatchini o'z vaqtida to'xtatib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan og'ir jinoyatning oldini olishdi.



– Tungi soat taxminan 23:30larda Marg'ilon shahar «Miltiqsoz» MFYda xizmat olib borayotgan edim, – deydi katta leytenant. – Shu kuni damga chiqqan hamkasblarimizdan biri menga qo'ng'iroq qilib, xonadonlardan birida janjal bo'layotgani haqida xabar qildi. Janjal to'g'risida hamkasbimizga boshqa bir fuqaro uyali telefon orqali ma'lum qilgan va ularni to'xtatishda amaliy yordam so'ragan. Shundan so'ng tungi xizmatni birga olib borayotgan sherigim, leytenant Qahramonjon Qurbonov bilan birga voqea joyiga tezda yetib bordik.

Inspektorlar borib ko'rishadiki, vaziyat juda og'ir. Ilgari ham Jinoyat kodeksining 105-moddasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etib, sudlangan A. U. ismli fuqaro qo'lida oshxona pichog'i hamda tayoq bilan, tajavvuzkorona holatda turganiga, boshqalarga xavf solayotganiga guvoh bo'lishadi. Inspektorlar fuqaroni tartibga chaqirib, qo'lidagi qurolni tashlashni va janjalni to'xtatishni so'rashadi. Ammo mast fuqaro va uning shirakayf o'g'li inspektorlarning qonuniy talabini bajarmay, boz ustiga, ularga faol qarshilik ko'rsatib, tan jarohati yetkazishga urinishadi.

Katta leytenant U.Ochilov janjallashayotgan shaxslarning noqonuniy harakatlariga chek qo'yish va boshqa fuqarolarni himoya qilish maqsadida o'ziga birlashtirilgan tabel qurolidan bir marotaba ogohlantiruvchi o'q uzadi. Lekin A.U. ogohlantirishdan so'ng ham harakatlarini davom ettirib, qo'lidagi oshxona pichog'i bilan hamkasbi leytenant Qahramonjon Qurbonovga tashlanadi va unga tan jarohati yetkazishga urinadi. Shundan so'ng Ulug'bek Ochilov jinoyatchining son qismiga bir marotaba o'q uzib, uni to'xtatishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, o'z xizmat vazifasiga vijdonan yondashib, murakkab vaziyatda to'g'ri yo'l tutgan inspektorlar nafaqat og'ir jinoyatning oldini olishdi, balki tahlikali holatda himoyasiz qolgan fuqarolar hayotini ham saqlab qolishdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

TO'G'RI O'ZAR, EGRI TO'ZAR

Nozim (ismlar o'zgartirildi) halol mehnat ortidan halovat bilan kun kechirishni istamadi. Tirikchilikning xayolidagi «eng oson» yo'lini tanladi. Aniqrog'i, o'g'rilik qildi. Qilmishi «issiq izida» fosh bo'lib, qonun doirasida ko'rib chiqildi va ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. 2024-yilning oktabr oyida Paxtachi tumani IIB JXX Probatsiya guruhi hisobiga olindi. Biroq u jazoni o'tash davrida bir necha marotaba sud tomonidan o'rnatilgan cheklovlarni buzdi.

Tuman IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Javlonbek Tuyinov qayta-qayta ogohlantirishiga qaramay, u tuzalish yo'lga o'tmadi. Shundan keyin inspektor Nozimning ozodlikni cheklash jazosini ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirish yuzasidan Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudiga taqdimnoma kiritdi.

Shundan so'ng Nozim kapitan J.Tuyinovning xizmat xonasiga kelib, o'ziga nisbatan yengillik yaratib berishini va jazosini og'irroq jazo turiga almashtirmaslikni so'raydi. Va bu «odamiylik» uchun kapitanning plastik

kartasiga ma'lum miqdorda pul o'tkazib berishini aytadi. Bu noto'g'ri yo'ldan uni qaytarishga bo'lgan urinishlar natija bermadi. Aksincha, Nozim xodimga qo'ng'iroq qilib, pora taklif qilishda davom etdi.

Noqonuniy harakatlari-ni yana bittaga «boyitib», suvdan quruq chiqishni ko'zlagan Nozim maqsadiga yetolmadi. 19-iyun kuni o'tkazilgan tezkor tadbir chog'ida kapitan J.Tuyinovning xizmat xonasida 1 million so'm pulni pora tariqasida bergan vaqtida ushlendi.

– Men qariyb yigirma besh

yil ichki ishlar organlarida faoliyat yuritib, yorug' yuz bilan pensiyaga chiqqanman, – deydi iste'fodagi kapitan Zayniddin Qudratov. – O'g'limda menga izdosh bo'lish istagi uyg'onganida ich-ichimdan xursand bo'lganman. Xizmat boshlagan ilk kunlarida kasbiga sadoqat va halollik bilan xizmat qilsa, albatta, unib-o'sishi, kasb-korida baraka, xonadonida fayz bo'lishini ta'kidlaganman. Shukur, u yuzimni yerga qaratmadi. Tanlagan yo'lida o'n besh yildirki, sobit turib xizmat qilyapti. Farzandim haqida iliq so'zlar eshitsam faxrlanaman. Oilasining ham suyanchi. Kelinimiz bilan ahil-inoqlikda nabiralirim Doniyorbek, Durdonaxon va lmonaxonni tarbiyalamoqda. Ota uchun farzandlar baxt-u kamolidan ortiq quvonch yo'q.

Yaxshi niyat qilgan yetar murodga, deymiz. Bu so'zlar



zamidida inson taqdiri yo'lla-rining aksi bor. Demakki, kapitan Javlonbek Tuyinovning halolligi ham, Nozimning qo'li egriligi-yu hayot haqida tor o'ylab, shunchaki ud-

daburonlikda oson yechim izlashi ham niyatga bog'liq.

**Gulnoza
TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Samarqand viloyati.

JINOYATGA JAZO MUQARRAR

TEZKORLIK VA HUSHYORLIK BILAN

Toshkent viloyatida jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni fosh etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Quyida tezkorlik bilan fosh etilgan bir necha jinoyatlar tafsiloti bilan tanishtiramiz.

Tungi soat 01:20 lar atrofida viloyat IIBB Qo'riqlash boshqarmasiga Bo'stonliq tumani G'azalkent shahridagi qo'riqqa olingan savdo do'konidan signal tushdi. Tezkor guruh 3 daqiqa ichida voqea joyiga yetib bordi.

Eng qizig'i, qoq yarim tunda do'konga o'g'rilikka tushgan shaxs Sarvar Sadirov (voqea ishtirokchisining ism-sharifi o'zgartirildi) qochishga urinib qo'lidagi pichoq orqali o'zini jarohatlash bilan tahdid qiladi. Xodimlar tomonidan ko'rilgan choralar natijasida Bo'stonliq tumanida yashovchi, 1991-yilda tug'ilgan bu kimsa zararsizlantirilib, hodisa joyida qo'lga olindi.

Navbatdagi holat ham o'g'rilik bo'lib, Chinoz tumani dehqon bozorida sodir etilgan. Afsuski, bu bir emas, 4 nafar shaxs ishtirokida. Ammo jinoyat shu kuniyoq fosh etildi. O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari davomida savdo rastalaridan taxminiy narxi 5,2 mln so'mlik qo'l telefonlari va aksessuarlarni o'g'irlab, voqea joyidan yashiringan «shovvoz»lar qo'lga olindi. Gumonlanuvchi shaxslar tomonidan o'g'irlangan buyumlar esa jabrlanuvchilarga qaytarildi.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksi-ni 169-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, hozir tergov harakatlari olib borilmoqda.

Bugungi zamonaviy dunyoni turli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. So'nggi yillarda insoniyatning internet va axborot texnologiyalari sohalaridagi ixtirolari natijasida axborot makonidan foydalanuvchilar soni oshdi, uning pozitiv va negativ ta'sir doirasi ham kengaydi. Eng yomoni, jinoyatlarning yangi turi – kiberjinoyatlar yuzaga keldi. Anglaganingizdek, galdagi voqea aynan yuqoridagi mulohazalarimizga to'liq mos keladi.

Viloyat IIBB Kiberxavfsizlik bo'limi va Chinoz tumani Ichki ishlar bo'limi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar davomida Telegram messengeri orqali firibgarlik bilan shug'ullanib kelgan shaxs aniqlanib, ushlendi. Bunga Chinoz tumanida yashovchi 33 yoshli fuqaro Amir Nazarovning

Ichki ishlar bo'limiga murojaat qilib, Telegramda «Bunyodbek» nomli profil orqali onlayn daromad olish niyatida 5 million 850 ming so'm pul o'tkazganini va aldanganini bildirib qonuniy chora ko'rishni so'ragani sabab bo'ldi.

Surishtiruvlar davomida ushbu firibgarlikni Buxoro viloyatida yashovchi 20 yoshli yigit sodir etgani oydinlashdi. U messengerda 10 dan ortiq soxta profililar ochib, odamlarni «trejding» orqali daromad topishga ishontirgan va ularning pul mablag'larini o'zlashtirib kelgan. Mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

**Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent viloyati.



XIZMATLARDA

HALI QILADIGAN ISHLARIMIZ KO'P

«Birlashgan» mahallasi tuman markazida joylashgan. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi asosiy obyektlar, jumladan, kasalxona, banklar, savdo markazlari, davlat xizmatlari ofislari ham shu yerda. Shu sababli kelib-ketuvchilarning oxiri ko'rinmaydi. Bu esa biz, ichki ishlar organlari xodimlaridan alohida e'tibor va mas'uliyat talab qiladi.

Mahalladagi barcha savdo markazlari, ijtimoiy obyektlar, 28 ta ko'chaning kirish qismlariga videokuzatuv kameralari o'rnatilgan va bir nuqtaga markazlashtirilgan bo'lib, muntazam kuzatib boriladi. Shu yilning boshida hududdagi ko'p qavatli uylarning kirish qismiga yuz orqali tanuvchi eng so'nggi rusumdagi kuzatuv kameralarini o'rnatdik va kelib-ketuvchilarni nazorat ostiga oldik.

Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ham keng miqyosda ishlar olib borilyapti. Xususan, joriy yil boshidan buyon 80 nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi. 20 nafar yosh tadbirkorga ish boshlashi uchun imtiyozli kreditlar olib berildi. Masalan, fuqaro Feruza Sulaymonovani xorijdan oilasi bag'riga qaytarish chorasini ko'rdik va unga tadbirkorligini rivojlantirish uchun imtiyozli kredit olishda yordam berdik. Hozir u bozorda kichik korxonasida ishlab chiqargan ip mahsulotini sotishni yo'lgan qo'ygan.

Mahallamizdagi har bir xonadonda bo'lib, aholi bilan suhbatlar o'tkazyapmiz. Bu jarayonda ularni qiynab kelayotgan muammolarni hal qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Notinch oilalar a'zolari ishtirokida xotin-qizlar faoli bilan hamkorlikda yarash-tirish ishlarini tashkil etmoqdamiz. 12 ta oilani yarashtirish choralarini ko'rganimiz so'zimiz dalilidir.

O'tgan yil yakuniga ko'ra, mahallamiz «yashil» toifaga o'tgani olib borayotgan ishlarimiz samarasi, desam, nokamtarlik bo'lmaydi. Profilaktika inspektorlarining zimmasidagi vazifalar esa hech qachon to'xtab qolmaydi. Hali qiladigan ish-

larimiz talaygina. Mahallamiz farovonligi, tinchligi va osoyishtaligi yo'lida bor kuchg'ayratimizni safarbar etamiz.

Doniyorbek MAMAJONOV,
Mingbuloq tumani IIB JXX HPB
profilaktika katta inspektori, kapitan.
Namangan viloyati.

OGOHLIK

QUROL O'YINCHOQ EMAS



Jizzax viloyati IIB JXX JTSB xodimlari hududiy profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda fuqarolarga tegishli ov qurollarining saqlanishini o'rganib borish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida ov quroliga ega 2 ming 161 kishiga o'qotar qurollarni saqlash va qo'llashga oid tushuntirishlar berildi. Shunga qaramasdan, ayrim shaxslar ov qurolini saqlash bilan bog'liq me'yorlarni buzish-

yapti. Jumladan, soha vakillari Jizzax shahrining «Ravalliq» mahallasida istiqomat qiluvchi X.A. ov quroli va o'q-dorilarni bir joyda saqlayotganini aniqlab, miltig'ini rasmiylashtirib olishdi. Mazkur xatti-harakati uchun sud huquqbuzarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida jarima tayinlandi. Umuman olganda, yil boshidan buyon qurolni saqlash va olib yurish qoi-

dalari hamda ruxsatnoma muddatini buzganligi uchun 442 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, ulardan belgilangan miqdorda jarima undirilishi ta'minlangan. Ichki ishlar organlari xodimlari 17 ta qurol hamda 284 ta o'q-dori saqlash bilan bog'liq qonunbuzarliklarni aniqlagan.

O'z navbatida, 16 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. Shuningdek, 56 ta o'qotar qurol noqonuniy muomaladan olindi. Qolaversa, soha vakillari tashviqoti sabab 42 kishi o'qotar qurollarini topshirdi. Ushbu qurollarning 29 tasi pnevmatik miltiqlardir.

Qisqasi, qurol tug'dirishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinayotir.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

MAHALLADA KUTUBXONA

Yaqinda Toshkent shahar Sergeli tumani IIOFMB 1-sonli IIB hududidagi «Saxovat» mahalla fuqarolar yig'ini binosida joylashgan kutubxonada bo'lib, u yerdagi shart-sharoitlar va imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdik.

YUKSAK
MA'NAVIYAT SARI

– Kutubxona ochish haqidagi taklifimizni mahalladoshlarimiz qizg'in qo'llab-quvvatlashdi. Fuqarolarimiz o'zlari kitoblar keltirib berishdi. Shu zaylda mingga yaqin kitob jamlandi. Bu, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlikka qiziqitirish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, dunyoqarashi va ilm saviyasini muntazam oshirib borishiga alohida hissa qo'shishi, shubhasiz, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hakimjon Karimov.

Ayni paytda kutubxonaga a'zolar soni 100 nafardan oshdi.

– Fuqarolar kutubxonadan istagan kitobni belgilangan muddatga olib ketadi va o'qib bo'lib, yana qaytarib topshiradi. Xohlaganlar kutubxonaning o'zida o'tirib o'qishi ham mumkin. Bolalar uchun badiiy, ensik-

lopedik va ilmiy adabiyotlarga qiziqish katta, – deydi kutubxonachi Ilmira Yesinbayeva.

Eng qizig'i, faol kitobxonlar rag'batlantirib boriladi. Har oyda bir marta ko'ngilli kitobxonlar ishtirokida o'qilgan asarlar yuzasidan muhokama bo'lib o'tadi. Munozaralar va savol-javoblarga boy tarzda kechadigan bunday tadbirlarni kitobxonlar doim sog'inib kutishadi. Faol ishtirokchilar mahalla kutubxonasi tomonidan esdalik sovg'alari va tashakkurnomalar bilan taqdirlanadi. Kelgusida esa «Eng faol kitobxon oila», «Eng kitobsevar inson» kabi ko'rik-tanlovlarni o'tkazish rejalashtirilgan.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV
olgan surat.

Toshkent shahri.

KELGUSI SONDA:

Jizzax viloyati Arnasoy tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Jaloliddin Sarimsoqov 3 kishining hayotini saqlab qoldi. 5 ming nafardan ortiq fuqaro istiqomat qiladigan G'afur G'ulom nomli mahalla osoyishtaligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan fidoyi xodim qonunbuzarlikning oldini olish borasida ham yuqori natijalarni qayd etmoqda.

Gazetamizning navbatdagi sonida har jabhada hamkasblariga ibrat ko'rsatayotgan inspektorning qahramonligi haqida hikoya qilinadi.



MA'NAVIYAT MARSHRUTLARI

TO'RT MINORALI
MO'JIZA

Chor minor madrasasi Buxoroning nisbatan kichik, ammo nihoyatda o'ziga xos va jozibali me'moriy yodgorligidir. Mazkur yodgorlik 1807-yili Buxoroda yashab o'tgan boy turkman Xalifa Niyozquli tomonidan bunyod etilgan. U Amir Haydar hukmronligi davrida yirik davlat lavozimlarida ishlagan va XIX asrning o'rtalarida vafot etgan. To'rt minorali inshoot an'anaviy usulda qurilgan bo'lib, masjid, madrasa, shuningdek, darveshlar va musofirlar tunashi mumkin bo'lgan xonaqoh sifatida xizmat qilgan. Yana o'z davrida kutubxonasi bilan ham mashhur bo'lgan.

Madrasaning asosiy binosi unchalik katta bo'lmasa ham, burchaklarida joylashgan to'rtta gumbazli minoralar uning betakror qiyofasini yaratadi. Har bir minora turli xil dekorativ elementlar bilan bezatilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos naqshlarga ega. Aytishlaricha, Xalifa Niyozquli o'z madrasasini to'rtta go'zal qizi sharafiga to'rt minora bilan zeb berishni buyurgan. Mazkur inshoot bilan XVI asrda Hindiston davlatidagi Haydarobod shahrida qad rostlagan Chor minor masjidi o'rtasida ayrim mushtarakliklar bor. Ayniqsa, qurilishida aralash uslublar qo'llangan.

O'rta Osiyo me'morchiligi-da ko'rinishi jihatdan ajralib turuvchi madrasa zikrxonasi bilan ahamiyatga ega. Shu bois unda so'fiylar o'zlari-ning an'anaviy zikr marosimlarini o'tkazishgan. Zalda qo'shiq va cholg'u sozlari uchun ham joylar mavjud bo'lgan. Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlisi madrasaning janubi-g'arbiy burchagida joylashgan. Madrasaga ikki qavatli, gumbaz tomlı darvozaxona orqali kiriladi. Ikki qavatli kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo'lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to'ldirilgan. Ikkinchi qavatga



minoralarining biridagi zina orqali chiqiladi.

O'sha davr taqozo qilgan sharoitga ko'ra, Chor minor hujralarida yashagan fuqarolar 1961–1962-yillarda yangi qurilgan ikkita binoga ko'chirilgan. Bu yerdagi masjid tuz omborxonasi sifatida foydalanilganligi bois yaroqsiz holga kelgan va

buzib tashlangan. Madrasa hujralari buzilib, bir qismi namuna sifatida qayta ta'mirlab qo'yilgan. Mazkur hujralar talabalar uchun yotoqxona vazifasini o'tab kelgani taxmin qilinadi. Yana rivojatlarga ko'ra, bu to'rt minora dunyoning to'rt tarafini yoki islomning to'rtta asosiy tariqatini ramz qiladi.

Ko'hna shahrimizning qadimiy yodgorliklaridagi bitiklarni o'rganish, tadqiq qilish, mazmun-mohiyatini xalqimizga yetkazish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tosh bitiklardagi naqshlar, yozuvlar kishini befarq qoldirmaydi. Misol uchun aytadigan bo'lsak, Chor minorning poydevoridagi xarsang toshda Mavlono Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub «Haft avrang» («Yetti taxt») tarkibiga kirgan «Tuhfat ul-ahror» dostonidan iqtibos mahorat bilan bitilgan. Mazkur dostonning «Tariqat qutbi, xaloyiq madadkori Xoja Bahouddin Naqshband Buxoriy» nomli bobidan keltirilgan iqtibos nasta'liq xatida toshga o'yib yozilgan.

Chor minor madrasasining o'ng tomonida bino yoshiga tengligi taxmin qilinadigan hovuz mavjud. Bugungi kunda madrasa atrofi kichik rastalar va aholi yashaydigan xususiy uylar bilan o'ralgan. 1995-yilda Chor minor madrasasi UNESCOning «Butunjahon madaniy yodgorliklari» ro'yxatiga kiritildi.

Mirzoqul AHADOV
tayyorladi.

Buxoro viloyati.

O'QISHNI TAVSIYA QILAMAN

O'TMISH VA BUGUNNING SUHBATI

Adabiyotning eng yuksak vazifalaridan biri tarixni anglash, insoniyat o'tmishini bugun bilan bog'lash, hozirgi avlodga ibrat va saboq tarzida yetkazishdir. Bu jihatdan qaralganda, Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romani nafaqat tarixiy-badiiy asar, balki falsafiy anglashuv manbayi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Roman markazida ikki buyuk alloma – Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino qiyofasi, ularning fikriy va ma'naviy kurashlarga boy hayoti, ayniqsa, tarixiy haqiqat va bugungi davr orasidagi muloqot turadi.

«Ko'hna dunyo» romanida tasvirlangan voqealar nafaqat tarixiy hujjatlar asosida, balki badiiy mushohada va falsafiy xulosalar yordamida boyitilgan. Bu esa asarga hayotiylik, hissiy chuqurlik va zamonaviylik baxsh etgan. Odil Yoqubov tarixga bugungi kun nigohi bilan qaraydi, tarix bilan bahslashadi, uni tushunishga va tahlil qilishga intiladi. Alлома qiyofasida u nafaqat o'tmishdagi insonlarni ko'rsatadi, balki ularning g'oyalari va qadriyatlari orqali hozirgi zamon kishisiga murojaat qiladi.


Beruniy va Ibn Sino obrazlari asarda o'z davrining ilg'or, erkin fikrli, aql va imdan boshqa kuchga tayanmagan, fanning qudratiga ishonuvchi, mustaqil tafakkur egasi bo'lgan insonlar sifatida gavdalana-di. Ularning ilmiy izlanishlari, jamiyatdagi ziddiyatlar, aqidaparastlik bilan to'qnashuvi zamirida katta insoniy,

ma'naviy, axloqiy kurash yotadi. Aynan mana shu nuqtalarda roman o'zining tarixiy emas, falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Roman o'z tuzilishi bilan ham e'tiborga loyiq. Asar muallifi ikki allomaning hayotidan atigi bir oyga yaqin davrni tanlaydi va aynan shu qisqa davr ichida ularning dunyoqarashi, munozaralari, ichki kechinmalari orqali butun bir tarix, jamiyat, davr ruhi aks ettiriladi.

Bu roman o'quvchining diqqatini umumiy tarixiy tafsilotlardan ko'ra, individual fikrlar, falsafiy qarashlar va muhim savollarga qaratadi. Aslida, bu qisqa muddatli tasvir orqali muallif «zamonlar osha sayohat» qilgan holda, tarix va bugunning o'xshash tomonlarini ochib beradi.

Roman qahramonlari o'rtasida kechadigan munozaralar, savol-javoblar oddiy nutq shaklida emas,



balki falsafiy mushohada tarzida qurilgan. Ibn Sino va Beruniyning dunyoni idrok etishdagi yondashuvlari, ilm va e'tiqod orasidagi munosabatga bergan talqinlari, o'z e'tiqodiga sodiqligi – bularning bari muallifni chuqur falsafiy izlanishga undaydi. U tarixiy faktlar orqali emas, balki ular zamiridagi fikrlar, g'oyalar orqali haqiqatga erishishga intiladi.

Shuningdek, roman bir necha asrlar ilgari bo'lib o'tgan voqealarni ko'rsatgan bo'lsa-da, bugungi davr uchun ham dolzarb bo'lgan ilm va

jaholat, aql va e'tiqod, erkinlik va bo'ysunish, mustaqil tafakkur va aqidaparastlik kabi muammolarni ko'taradi. Shuning uchun ham asar nafaqat tarixiy-badiiy adabiyot namunasi, balki hozirgi avlod uchun ma'naviy mezon, tafakkur maktabi sifatida ahamiyatlidir.

Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romani faqat ikki buyuk alloma hayotini tasvirlagan tarixiy-biografik asar emas. Bu asar o'tmish orqali bugunni tushunishga, insoniyatning doimiy savollariga javob topishga urinilgan badiiy-falsafiy izlanishdir. Muallif tarix bilan emas, tarix ortida yashiringan haqiqatlar bilan ishlaydi. Beruniy va Ibn Sino timsolida biz o'zimizni, bugungi ijtimoiy va ma'naviy hayotimizni, qadriyatlarimizni ko'ramiz.

Roman o'z o'quvchisini chuqur mushohada qilishga, insoniyat taqdirini zamonlar uzviyligida tushunishga undaydi. Shu bois, «Ko'hna dunyo» hozirgi zamon o'quvchisiga tarixiy haqiqat va falsafiy anglashuvning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi.

Rasuljon ORIPOV,
katta leytenant.

Surxondaryo viloyati.





Грани мастерства

ОПЫТ В ДЕЙСТВИИ

Начальник ОБДД СОБ ОВД Шараф-Рашидовского района майор Азамат Туракулов за 15 лет службы в органах внутренних дел подготовил немало учеников. Обладая педагогическими способностями, ответственный и заботливый, он охотно делится опытом с молодыми коллегами. Майор разъясняет практические примеры, учит оперативно находить верные решения.

– С первых дней майор Азамат Туракулов произвел на меня впечатление ответственным отношением к работе, – говорит инспектор ДПС сержант Хуршид Зоиров. – На его примере постигал азы непростой науки по обеспечению безопасности дорожного движения, предупреждению ДТП, определению и предотвращению очагов потенциальных аварий. Он служит примером человечности не только на службе, но и в быту. Уже два года служим с ним плечом к плечу.

Протяженность дорог в Шараф-Рашидовском районе составляет порядка 1180 километров. За минувший период года усилиями сотрудников удалось снизить количество ДТП на 22 процента, летальных исходов – на 58 процентов.

Подобная положительная динамика — результат не только усиленного контроля, но и грамотной профилактической работы. В этом процессе важна личность — человек, к которому прислушиваются. Майор Азамат Туракулов стал для многих молодых сотрудников настоящим ориентиром: его подход к обучению, внимание к деталям и способность делиться опытом напрямую влияют на уровень подготовки инспекторов, а значит — и на безопасность на дорогах.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

Джизакская область.



На фото: майор Азамат Туракулов (справа) и сержант Хуршид Зоиров.

ПРИТЧА О ДВУХ ВОЛКАХ



Один старый индеец рассказывал своему внуку о борьбе, которая происходит внутри каждого человека. Он сказал: «Внутри меня борются два волка. Один волк — это зло. Это гнев, зависть, ревность, печаль, сожаление, жадность, высокомерие, жалость к себе, чувство вины, обида, неполноценность, ложь, ложная гордость, превосходство и эго. Другой волк — это добро. Это радость, мир, любовь, надежда, спокойствие, смирение, доброта, благожелательность, сочувствие, щедрость, истина, сострадание и вера».

Внук задумался на мгновение, а затем спросил: «Какой волк победит?»

Старый индеец ответил: «Тот, которого ты кормишь».



Судебный очерк

ФАЛЬШИВОМОНЕТЧИКИ

Вместо честного труда Холназар Элназаров, Дониер Аълоев и Асрор Шербеков (здесь и далее имена и фамилии изменены) решили заняться изготовлением поддельных денег. Элназаров и Аълоев — ранее судимые, познакомились случайно, сдружились и вскоре решили «подзаработать».

Холназар приобрел цветной принтер, предложив напарнику:

— Будем печатать деньги, сбывать — через знакомых в Бухаре. В Ташкенте много риска.

Аълоев вспомнил о Шахобиддине — бывшем сокамернике, которому одалживал деньги. Позвонил ему с предложением:

— Поможешь с обменом фальшивок — прощу долги.

Шахобиддин не хотел ввязываться, но из-за безысходности согласился. Однако уже на следующий день передумал и сообщил в Гиждуванское РОВД. Для проведения операции ему были выданы под расписку 3000 долларов США.

Тем временем в Ангрене Холназар наладил «производство» — были напечатаны купюры на

сумму 132 миллиона 880 тысяч сумов. Для помощи он привлек родственника — Шербекова, пообещав долю. Деньги планировали обменять на 50 миллионов сумов.

Аълоев выехал в Бухару на арендованной «Джентре». В Гиждуване он передал сумку с фальшивками Шахобиддину, получив от него заранее подготовленные доллары. В этот момент его задержали сотрудники правоохранительных органов.

После ареста Аълоев дал признательные показания. Вскоре были задержаны и остальные участники. В съемной квартире изъяли поддельные купюры, принтер, резак для бумаги и другие улики.

Дело вел следователь Следственного отдела при Гиждуванском РОВД старший лейтенант Сафожон Мухторов.

Суд вынес приговор: Х. Элназарову — 5 лет 6 месяцев лишения свободы, Д. Аълоеву — 5 лет 1 месяц, А. Шербекову — 3 года.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



MULOHAZA

ILDIZ – IJTIMOIY
TARMOQDA

Bugun ko'p vaqtimizni o'g'rilayotgan, kimgadir ilm manbayi, kimgadir ermak vazifasini o'tayotgan, axborotga bo'lgan bitmas ehtiyojlarimizni qondirayotgan ijtimoiy tarmoq qarashlarimizni, qadriyatlarimizni o'zgartirib, hislarimizni o'ldirib qo'yayotgandek, go'yo. Binobarin, ilgarigidek har qanday qo'rqinchli voqeaning tasvirlarini ko'rsak-da, etimiz junjikmay qo'ydi, ko'nikyapmiz.

Qolaversa, ijtimoiy tarmoq yaxshiga ham, yomonga ham ustozlik qilayotir. Chunonchi, undan shifokor tavsiyasini, dehqonchilikning nozik jihatlari o'ldirib, ma'lumotlarni topsa bo'ladi. Shuningdek, giyohvandlik moddasi yoki boshqa narsalar bo'yicha ham saboq bera oladi bu «aqli matoh». Turli qonunbuzarliklar tafsilotlarini miridan-sirigacha bilib olishingiz ham mumkin. Aytgancha, bu mavzuda gap ochmoqqa bizni jinoyat qidiruv bo'limi xodimlaridan eshitganlarimiz undadi.

Qisqasi, Arnasoy tumanida yashovchi ayolning uyidagi sandiqdan 3 ming 100 AQSH dollari, 3 ta tilla uzuk, 1 juft oltin, 2 juft kumush sirg'a hamda bir nechta uzuk va zanjir o'g'irlangan. O'sha kuni uy egasi qizini poytaxtga shifokorga olib ketgandi.

Voqea joyini ko'zdan kechirgan ichki ishlar organlari xodimlari jinoyatchilar oshib kirganligi taxmin qilingan devor tagidan kichik o'lchamdagi oyoq kiyimi izlarini topishdi. Shu bois soha vakillari mazkur uyga bolalar kelish-kelmasligi bilan qiziqishadi. Ma'lum bo'lishicha, ayolni yo'qlab 12 yoshli nabirasi hamda uning ikki o'rtog'i kelib turarkan.

Tabiiyki, ushbu voyaga yetmaganlarning xulq-atvori o'rganildi. Mazkur jarayonda bolalarning mahalladagi turarjoylardan bir necha bor mayda-chuyda buyumlarni o'g'rilaganliklari aniqlandi. O'z navbatida, gumon qilinuvchilar bilan suhbat o'tkazildi va ular qilmishlarini tan olishdi.

Ayon bo'lishicha, hududda yashovchi 14 yoshli o'smir aldash va qo'rqitish yo'li bilan jabrlanuvchining nabirasi hamda uning 13 yoshli o'rtog'ining bo'yniga 4 million so'mlik qarzni ilib qo'ygan. Qarzni to'lash muddati o'tgach, o'smir maktabdoshlarini shantaj qila boshlaydi. Bosimga chiday olmagan nabira momosining sandig'ida pul borligini aytadi.

Shundan so'ng uchovlon mudhish jinoiy reja ishlab chiqishadi. Jumladan, ayol bolalarni sezib

qolsa, o'ldirib, iz qoldirmaslik uchun uning jasadi va uyni yoqib yuborishga kelishib olishadi. Ayni maqsadda o'zlari bilan pichoq va benzin olishadi.

Ayolning baxtiga o'sha tunda bolalar eshik qulfini buza olmaydi. Shu bois boshqa kuni kelishga qaror qilishadi va benzin to'ldirilgan 5 litrlik idishni ko'zdan xoli joyga ko'mib qo'yishadi. Oradan bir necha kun o'tgach, nabira buvisining poytaxtga jo'nab ketishidan xabar topadi. Bu safar ular egasiz uyga deraza oynasini sindirish yo'li bilan kirishga muvaffaq bo'lishadi...

Jinoyat tashkilotchisi bo'lgan o'smir o'g'rilikka oid rejani ijtimoiy tarmoqda ko'rgan ko'rsa-

Angliya, Italiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Niderlandiya, Ispaniya, Belgiya, Latviya, Finlandiya kabi davlatlardagi maktablarda uyali aloqa vositalaridan foydalanish to'liq va qisman taqiqlangan. Darsdan boshqa vaqtlarda bu boradagi mas'uliyat ota-onalar zimmasiga yuklanadi.

Joyi kelganda aytish kerak, Arnasoyda yuz bergan jinoyat ishtirokchilaridan birining onasi, boshqasining otasi xorijga ishlash uchun ketgan. Mazkur vaziyat ham bolalar tabiatiga o'z ta'sirini o'tkazgani tayin. Shu o'rinda yana bir mulohaza: rizqni chet eldan topmoq noto'g'ri emasdir. Biroq bolalar ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsiz qarashni oqlab bo'lmaydi.

Demoqchi bo'lganimiz, hashamatli uylar qurish, 500–1000 kishilik to'y-u marosimlar uyushtirish kabi «Men sendan kammanmi» mazmunidagi qarashlarimizga chek qo'ya olsak, boylik ilinjidagi xatarli harakatlarning kamayarmidi? Qolaversa,



tuvlari ta'sirida tuzganligini tan olgan. Nazarimda, so'nggi paytlarda ora-sira qulog'imizga chalinib qolayotgan voyaga yetmaganlar ishtirokidagi janjallar, oqibati xunuk tugayotgan voqea va hodisalarning bir ildizi ijtimoiy tarmoqqa taqaladi.

Eng qo'rqinchlisi, 12–14 yoshli voyaga yetmaganlarning o'g'rilik maqsadida inson joniga qasd qilishdan tap tortmayotganidir. Ulardan biri qurbonga aylanishi mumkin bo'lgan ayolning nabirasi ekanligiga nima deysiz?! Bu ayrimlar ongida yuz berayotgan inqiroz alomati emasmi?

Hech kimga sir emaski, bu muammo nafaqat mamlakatimizda o'zini sezdiryapti. Jumladan,

ming mashaqqat bilan topgan pul-larimizni odamlarni qoyil qoldirmoq uchun emas, bolalarimizga safrlasak, o'rinli bo'lmaydimi?

Yana shuni unutmasligimiz kerakki, ilmi inson qurilishda arzimagan pulga ishlamaydi, ko'cha supurmaydi, enagalik qilmaydi, til bilmagani uchun noqulay vaziyatlarga tushib qolmaydi. Xullas, ulug'bobimiz Abdulla Avloniyning oxirgi paytlarda ko'p takrorlanayotgan jumlasini yana bir bor eslatamiz: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

O'LKAMIZNI O'RGANAMIZ

TOSHKENT
ARIXIDAGI
ILSIM

Toshkent shahrining yuragida joylashgan Oqtepa arxeologik obidasi O'zbekiston tarixida alohida ahamiyatga ega. Poytaxtning shimoli-sharqiy qismida, Oqtepa kanali bo'yida joylashgan bu hudud o'rta asr (V–XIII asrlar) arxeologik yodgorligi hisoblanadi. Nafaqat arxeologik jihatdan, balki madaniy, ta'limiy va sayyohlik nuqtayi nazaridan ham ulkan sa-lohiyatga ega mazkur maskanda olib borilgan arxeologik qazish-malar tufayli Toshkentning yoshi 2200-yildan oshiq ekanligi ilmiy asosda isbotlangan.



Oqtepa – qadimgi Choch (yoki Shosh) shahrining asosiy qismi hisoblanadi. Birinchi marta 1940-yillarda o'zbekistonlik arxeologlar bu hududda qazish ishlarini boshlab, 1948-yilda akademik Y. G'ulomov rahbarligida keng ko'lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qazishmalar natijasida Buyuk ipak yo'li davriga tegishli qadimiy sopol idishlar, tangalar, qurilish izlari topilgan. Shahar devorlari, ko'chalar tizimi, turmush tarziga oid qoldiqlar bir necha asrlar davomida faol hayot kechganidan dalolat beradi. Choch puli – yo'lbars surati tushirilgan tangalar ham Oqtapedan topilgan.

Bu topilmalardan ko'rinadiki, Toshkentning ilk tarixiy markazlaridan biri aynan shu hududda joylashgan. Shuningdek, Oqtepa nafaqat tarixchilar, balki talabalar va sayyohlar uchun ham muhim obyektdir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bu joy Toshkentning ilk tamal toshi, madaniyatimizning yo'l boshchisi va yosh avlod uchun tirik darsxona-dir. Uning kashf etilishi O'zbekiston tarixi uchun ulkan ilmiy yutuq bo'ldi. Kelajakda bu maskan to'liq targ'ibot qilib borilsa, nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham muhim madaniy meros sifatida tan olinishi shubhasiz.

Go'zal JAFAROVA
tayyorladi.

► MUSTAHKAM OILA – YURT TAYANCHI

OILASI – BAXT OSHYONI

– Profilaktika inspektori Farrux G'ulomov yon qo'shnimiz, u oilasi bilan xizmat uyida yashaydi, – deydi «Zakovat» mahallasi raisi Sharofat Jalilova. – Bir-biridan shirin uch farzandi bor. Er-xotinning o'zaro hurmatiga havas qilamiz. Ayoli Umidaxon doim kulib turadi. Bilasizmi, ayol chehrasini qachon kulgu bezab turadi? Qachonki, ayol oila oshyonida qadrlanib, e'zoz topsa, uning ko'zlari baxtdan chaqnab, lablariga tabassum inadi.



Ikrom HASANOV olgan surat.

Aytgancha, oilaparvar inspektorimiz xizmatda ham zimmasiga yuklatilgan vazifalarga «labbay», deya javob berib, mahallamiz ahli ishonchini qozongan. Kezi kelganda huquqiy maslahatlar beradi. Muammolar qarshisida mulohazakorlik bilan ish tutadi.

Mirzo Ulug'bek tumani 5-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Farrux G'ulomov doim xizmat vazifalarini bajarib, oilasi bag'riga shoshiladi.

– O'quvchilik vaqtimda huquq-tartibot sohasida ishlashni orzu qilardim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Oliy o'quv yurtini tamomlab, tuman gaz bo'limida ish boshladim. Lekin ko'nglimga tugib qo'ygan maqsadlarim menga tinchlik bermasdi. Shu bois ichki ishlar organlariga xizmatga kirish maqsadida hujjatlarimni topshirdim va Qibray tuman IIBda xizmat faoliyatimni boshladim. Kapitan Sheroz Yahyoyev sohaning o'ziga xos jihatlari o'rgatgan ustozim bo'ladi.

Katta leytenant Farrux G'ulomovning xizmat hududi, ya'ni «Zakovat» mahallasida qariyb uch ming nafar aholi istiqomat qiladi. Hudud «yashil» toifada. Bu natijada huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash borasida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashni xizmatining asosiga aylantira olgan profilaktika inspektorining munosib hissasi bor.

lidayi mehr-oqibat tafti xizmatdan bo'sh vaqtida ota makoniga, yaqinlari davrasiga oshiqtiradi. Otasi Omon aka, onasi Xurshida opani yo'qlab borsa, albatta, ularga qo'shilib, 30 sotixdagi bog'-rog' ishlariga ham ko'maklashadi. Ularning oltindan qimmat duolarini olishga harakat qiladi.

Ha, har insonning baxti oila oshyonida mana shunday to'kis bo'lib, doimo Vatan xizmatiga shay tursin!

– Turmush o'rtog'imning kasbi nihoyatda mas'uliyatli soha ekanligini bilaman, – deydi Umida G'ulomova. – Shuning uchun farzandlarimiz Dovudbek, Bahora va Mohinurlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni o'z zimmamga olganman. Bunda pedagogligim juda qo'l keladi. Turmush o'rtog'im ham doim bolalari uchun vaqt topadi. Ularga xorijiy tillarni o'rganish, axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirishni uqtiradi. O'g'limiz Dovudbek til o'rganishga, futbolga qiziqsa, Bahoraning ota kasbiga mehri bo'lakcha. Men bundan xursandman.

Farrux G'ulomov asli parkentlik. Uning ko'ng-

► БИР ҚЎШИҚ ТАРИХИ

«АТИРГУЛИМ, АТРИНГ ҚАЙГА ТАРАЛАДИ?»

Ушбу мисралар билан бошланувчи ва санъатсевар халқимиз тилидан дилига кўчган тарона асли «Атиргулим», деб номланган. Бу кўшиқ 1990 йилда тожикистонлик ўзбек санъаткори, Тожикистонда хизмат кўрсатган артист Қодир Мирашуров томонидан куйланган. Ва ҳозирга қадар санъаткор репертуаридаги энг таниқли тароналардан бири ҳисобланади.



кўпроқ оммалашган. Йиллар силсиласида «Атиргулим» кўшиғи «Божалар» (2018 йил) гуруҳи ижросида, кейинчалик хонанда Сардор Мамадалиев талқини билан яна янгидан оммалашди.

Қўйида мазкур кўшиқ сўзларини ҳавола этамиз.

АТИРГУЛИМ

Атиргулим, аtring қайга таралади?

Боғ ичида сени кимлар саралади?

Боғ ичида бир сулуvgа кўнгил қўйсам,
Сулуvgа қурғур дилгинамни яралади.

Тузат ўзинг дилгинамнинг ярасини,
Аямагин бўйлариингнинг сарасини.
Мен ҳам бир бор кўнгил қўйиб суйдим, нетай,
Тополмадим ул сулуvgанин чорасини.

Тақдир, десам, тақдир шуми, севмай ўлай,
Бир соҳира ишқинг билан куймай ўлай.
Ўзинг қўлла энди мени, Яратганим,
Аро йўлда сар-у сарсон бўлмай ўлай.

Атиргулим, аtring қайга таралади?
Боғ ичида сени кимлар саралади?
Сулуvgа қурғур дилгинамни яралади.

Қодир Мирашуров интервьюларидан бирида уни бутун Ўзбекистонга машхур қилган кўшиғи ўзига хос яратилиш тарихига эгалигини таъкидлаган. Яъни, у Тожикистонда ўзбек тилида чоп этиладиган «Халқ овози» газетасини варақлаётиб, шоир Ибод Саъдулланинг шеърини ўқиб қолади. Кўнглида янги бир тарона яралишига учкун бўлиб порлаган шеърга ўзи куй басталайди. Тайёр бўлган кўшиқни илк бор Жиззах ва Сирдарё вилоятларидаги тўйларда ижро этганини хотирлаган. У ўша кезларда Ибод Саъдуллани танимас эди.

Шоир Ибод Саъдулланинг сўзларига кўра, кўшиқ матнига айланган шеърни ёзиш фикри «ички хиргойи» натижасида пайдо бўлган. Ва у ўз шеърининг ёқимли таронага айланганини радиога, аникроғи, «Машъал» тўлқинларида тинглаганини маълум қилади. Шунингдек, ушбу шеърни Қодир Мирашуровдан олдин бошқа бир хўжандлик санъаткор Шухрат Давлатов куйга солгани ва телевидениега олиб чиққанини айтиб ўтади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, ушбу таронанинг Қодир Мирашуров талқинидагиси

Саҳифа материалларини Гулноза ТУРҒУНБОЕВА тайёрлади.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda_uz



МАШХУР ОДАМЛАР ҲАЁТИДАН

ГЎЗАЛЛИКНИНГ ЁРҚИН ХАЛОСКОРИ

...1984 йил. Москва касалхонасининг кабинет-га айлантирилган палаталаридан бирида кекса бир одам қоғоз варақларини кунт билан кўздан кечирар, чеккаларига нималарнидир белгилаб хотиралар ёзар эди.

У умрининг охирлаб қолганини биларди ва ҳеч бўлмаганда режалаштирган нарсаларининг бир қисмини бўлса-да, бажаришга ҳаракат қиларди. Аммо касаллик зўрайиб борар, ҳаёт шами эса жимгина ёниб тугаб борарди. Бу инсон буюк рассом, Нукусдаги санъат музейининг асосчиси ва биринчи директори Игорь Савицкий эди.

Кўп ўн йилликлар давомида Нукус шаҳрида мовий ва балиқларга бой бўлган Орол денгизининг мусаффо ва шўр шамоллари эсиб турарди. Денгиз қуриб ортга кетди. Натижада қорақалпоқлар пойтахти юзлаб километрларга чўзилган жонсиз чўл билан қопланди.

XX асрнинг энг йирик экологик офатларидан бири бўлган Орол фожиаси ҳақида бутун дунё билади. Бироқ турли мамлакатлардан келган санъаткорлар ва маданият ихлосмандлари Нукусни бошқа сабаб билан яхши билишади. Бу ерда ноёб санъат музейи

– «сахродаги музей» жойлашган.

Мутахассислар уни Осиёдаги энг яхши санъат тўплами деб билишади. Англиянинг «Гардиен» газетаси эса Нукус коллекциясини дунёдаги энг буюк тўпламлардан бири, деб атади. Музей фондида 20 000 дан ортиқ расмлар, жумладан, XX аср рус авангард рассомларининг энг яхши асарлари, шунингдек, 80 000 га яқин гиламлар, тангалар ва заргарлик буюмлари, халқ амалий санъати намуналари мавжуд. Бу ерда қорақалпоқ халқининг энг бой санъат дурдоналари тақдим этилган. Музей феномени, биринчи навбатда, унинг асосчиси Игорь Савицкий номи билан боғлиқ.

Бу сирли замин ўзининг оғир иқлими ва бўронли шамоллари билан 1950 йилда Хоразм археологик-этнографик экспедицияси таркибда Қорақалпоғистонга илк бор ташриф буюрган моск-

валик рассом Игорь Савицкийни мафтун этди. Экспедиция давомида Савицкий қорақалпоқларнинг халқ амалий санъати билан илк бор танишди. Бу фаолият уни шу қадар мафтун этдики, кейинчалик Амударёнинг қуйи оқими чўлларида яшовчи қорақалпоқларнинг қадимий миллий санъатига жиддий қизиқа бошлади.

Орадан 16 йил ўтиб у Нукус санъат музейига асос солади. Нукус музейи қорақалпоқ тасвирий санъати ва маданиятини ривожлантириш ҳамда асраб-авайлашда муҳим аҳамият касб этди. Музей фондидан ўлка тасвирий санъатининг пайдо бўлиши ва ривожланишининг асосий йўналишлари акс эттирилган қорақалпоқ рассом ва ҳайкалтарошларининг энг яхши асарлари ўрин олган.

Эътиборлиси, И. Савицкий айнан у етуклик чоғида Москвадан келиб қадимги халқларнинг миллий кийим-кечаклари, гиламлари, заргарлик, уй-рўзғор буюмларининг асл қадрини санъат асари сифатида англади. У Москвадаги юқори мартабали ва истиқболли ҳаётидан, пойтахтдаги моддий бойлик ва қулайликлардан воз кечиб, Қорақалпоғистонга кўчиб ўтди.

Савицкий Қорақалпоғистоннинг асл ватанпарвари эди. Унда бу ўлканинг маданияти, тарихи, анъаналарига чексиз меҳр уйғонди, миллий кашта тикилган эски матоларнинг майда парчаларига соатлаб тикилиб қойил

қоларди. Бу эса маданиятли, гўзалликни қадрловчи инсон қандай бўлиши кераклигининг мезони эди. Унинг Нукусга кўчиб ўтгандан кейин тўплаган коллекцияси қорақалпоқ маданиятининг генофонди, деб тан олинди.

Игорь Савицкий ўлканинг ажойиб табиат манзараларини, олтин қумлар устида кўтарилган қумуш рангли қадимий қалъаларнинг кўринишларини мароқ билан чизди. «Бу ўлкада ким яшашидан қатъи назар, бу ерда ажойиб рассомлар яшаган, мен сизнинг қумларингиз бунчалик юмшоқ ва чиройли деб ўйламаган эдим», деган эди у ўз хотираларида.

Бугун у ва унинг издошлари томонидан тўпланган бебаҳо санъат бойликлари қадимий қорақалпоқ маданияти нуфузини ошириш, жаҳон даражасига кўтаришга хизмат қилмоқда.

Мутахассисларнинг фикрича, Нукусдаги рус авангард коллекцияси аҳамияти ва кўлами бўйича дунёда Санкт-Петербургдаги музейдан кейин иккинчи ўринда туради.

1984 йил 27 июлда И. Савицкий узоқ давом этган касаллиқдан сўнг Москвадаги касалхонада вафот этди. Москвалик дўстлар, рассомлар, санъатшунослар Шарқ халқлари санъати давлат музейида у билан хайрлашишди. Савицкий ўзининг сўнгги васиятида уни Қорақалпоғистонда дафн этишни сўраган. Шу орқали Игорь Савицкий бутун ҳаётининг мазмунига айланган бу халққа ҳурмати ва мин-

натдорлигини билдириб, унинг қадимий тарихи ва маданиятига ўзининг чуқур садоқати ва муҳаббатини изҳор этди.

Ота томондан Польша зодагонларининг авлоди, она томондан эса рус зиёлиларидан Тимофей Флоринскийнинг набираси, Киевда туғилиб, Москвада ўқиб билим олган Игорь Савицкий ўзининг Ватанига айланган олис юртда умр саёхатини якунлади. Унинг жасади Нукусдаги рус қабристонига дафн қилинди ва «Миннатдор авлодлардан гўзалликнинг ёрқин халоскорига» деган ёзув билан ёдгорлик ўрнатилди. Аммо унинг учун энг қадрли ёдгорлик у яратган музей эди.


2002 йилда Игорь Савицкий вафотидан сўнг мамлакатимизнинг энг олий мукофотларидан бири – «Буюк хизматлари учун» ордени билан тақдирланди.

Игорь Савицкий гўзаллик дунёни қутқаришига чуқур ишонган. Бугунги Қорақалпоғистон санъат музейи унинг номи билан аталади ва ҳақли равишда Ўзбекистон маданий меросининг дурдоналаридан бири ҳисобланади.

Савицкий ва у яратган музей ҳақида ўнлаб фильмлар суратга олинган ва мақолалар ёзилган. Бироқ шундай ажойиб инсонларнинг ҳаёт йўллари яна бир бор эслаб ўтиш, уларга бўлган ҳурмат ва эътиборни ифодалаш фойдадан холи бўлмас.

Файратулла ШУКУРОВ,
ўз мухбиримиз.





TOMIRLAR ISSIQNI YOQTIRMAYDI

Yoz oylarida havo harorati yuqori bo'lganda ba'zi insonlarda qon bosimi pastlab ketishi mumkin, bu tibbiyotda gipotoniya deb ataladi. Qon bosimi tushib ketishining bir necha sabablari bor:

● **Yoz jaziramasida ko'p terlash orqali ko'p suv yo'qotamiz, organizmda suyuqlik kamaysa, qon hajmi kamayadi va bosim tushadi.**

● **Issiqda qon tomirlari kengayadi, bu ham qon bosimini pasaytiradi.**

Qon bosimi tushib ketsa, yurak urishi tezlashadi, tanada qon yaxshi aylanmaydi. Suyuqlik yetishmasligi tufayli og'iz quriydi, peshob kamayadi. Bosh aylanadi, ko'z oldi qorong'ilashadi, holsiz bo'ladi.

Issiq ob-havo ayrimlarning qon bosimi oshishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Havo harorati 28°C darajadan ortiq bo'lganda yuqori va pastki qon bosimi pasayadi. Tana uzoq vaqt qiziganda ikkinchi faza boshlanadi. Yuqori qon bosimi ko'tarila boshlaydi, pastki qon bosimi esa pastligicha qolaveradi. Natijada pulsli bosim ko'tariladi. Bu tomirlar uchun xavfli va hatto infarkt va insultlarni keltirib chiqarishi ham hech gap emas. Goh u, goh bu tomonga keskin o'zgarish kriz deb ataladi. Buning oldini olish uchun hol-ahvolni nazorat qilish kerak. Muntazam qon bosimini o'lchash orqali gipertoniya xurujini nazorat qilish hamda qon bosimi-

ning ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik mumkin.

Jazirama kunlarda dorilar ta'siri o'zgarib, ba'zi gipertoniya qarshi dori vositalari samarasiz bo'lishi mumkin. Shu bois o'zingizni o'zingiz nazorat qiling. Bu kabi ko'ngilsiz holatlarning oldini olish uchun hatto chanqoqni his qilmaganda ham, har 15–30 daqiqada oz-ozdan oddiy suv iching. O'z organizmingiz suvsizlanishini nazorat qilishga o'rganing.

● **Quyoshda ko'p qolmang, soya yoki salqin joyda yuring.**

● **Ochiq rangli, yupqa va havo o'tkazadigan kiyimlar kiying.**

● **Qon bosimini o'lchab, nazorat qilib turing.**

● **Dorilarni shifokor bilan maslahatlashib, issiqda to'g'ri dozada qabul qiling.**

● **Sog'lom ovqatlanishga e'tibor qarating, yog'li, sho'r, tez buziladigan taomdan voz keching. Vitaminli ovqatlar, suzma, mevalar, salatlar kunlik ratsioningizda, albatta, bo'lsin.**

**Ikromjon USMONOV,
Namangan viloyati IIB Tibbiyot
bo'limi poliklinikasi shifokori.**

YOZGI MAVSUMIY TAOMNOMA

Inson organizmining har bir a'zosi faoliyati issiq va sovuq ob-havo sharoitida sezilarli darajada farqlanib, tanamiz uchun eng qulay harorat 26°C hisoblanadi. Chunki bunda tana haroratini me'yorda saqlab turish uchun kamroq energiya sarflanadi. Issiq kunlarda odam ko'p terlashi hisobiga ovqat hazm qilish, nafas olish kabi fiziologik jarayonlarga ko'proq energiya sarflanadi, shuningdek, ter bilan birga tanadan zarur vitamin va mikroelementlar ham chiqib ketadi.

Yoz oylarida salomatlikka zarar yetkazmaslik va jazirama issiqning organizmga salbiy ta'siridan saqlanish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Issiq kunlarda ishtaha yo'qoladi, shuning uchun mavsumiy mahsulotlar – meva, sabzavot va ko'katlar iste'molini ko'paytirish lozim. Chunki ular nafaqat chanqoqni qondiradi, balki tanani zarur va foydali moddalar, vitamin va minerallar bilan to'yintiradi. Yozda ushbu tabiiy mahsulotlar taomnomaning asosini tashkil qilishi kerak. Misol uchun, nonushtada bo'tqa yoki tvorogga mevalar qo'shib yeyish, tushlikda taom yoniga sabzavot va ko'katli salat tortish, kechki ovqatni tayyorlashda ichiga ko'proq sabzavot va ko'katlardan qo'shish mumkin.

2. Hazmi og'ir ovqatlardan cheklanish kerak. Yoz kunlarida qovurilgan yog'li taomlar, shirinliklar, kolbasa va konserva mahsulotlari, yarimtayyor yeguliklar, sho'r mahsulotlar, mayonezli salatlar iste'molini kamaytirgan ma'qul. Chunki ular chanqoqni kuchaytiradi, oshqozon-

ichak, yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Organizm metabolik jarayonlarni tartibga solish va tana haroratini me'yorga tushirish o'rniga, ovqat hazm qilish uchun ko'p energiya sarflaydi va qiziydi, natijada inson o'zini lohas his qila boshlaydi.

3. Foydali shirinliklarni tanlash. Issiq kunlarda ishtaha bo'lmay, hech narsa yeringiz kelmagan paytlarda tamaddi uchun eng yaxshi tanlov muzqaymoqdir. Unga reza mevalardan qo'shib iste'mol qilish o'ta foydali va tanaga quvvat beradi. Lekin me'yorni unutmaslik kerak. Yoz uchun yana bir foydali shirinlik mevali salatlar. Mayda qilib to'g'ralgan mevalarga yogurt qo'shib iste'mol qiling. Bu kam kaloriyaga ega foydali yegulikdir.

4. Suv rejimiga amal qilish. Odatda kuniga 2–2,5 litr suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Lekin buni jismoniy faollik darajasiga va boshqa omillarga qarab moslashtirish kerak. Suyuqlikni tez-tez va oz-ozdan iste'mol qilish maqsadga muvofiq, chunki birdaniga ko'p miqdorda ichish yurakka ortiqcha zo'riqish yuklashi mumkin. Qahva, shirin gazlangan ichimliklar va qadoqlangan sharbatlarni ichish tavsiya etilmaydi. Yaxshisi, mevalardan kompot, foydali o'tlardan damlama, limonli va yalpizli choy tayyorlab iste'mol qilgan ma'qul. Imkon qadar ularni shakarsiz yoki juda oz miqdorda qo'shgan holda iching. Quritilgan mevalar yoki na'matak solib damlangan ichimlik ham sovuq holda yaxshi chanqovbosti xususiyatga ega.

**Nargiza SAYDALIYEVA,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linmasi boshlig'i,
podpolkovnik.**

НЕ ТЕРПИТЕ БОЛЬ

Усталость, стресс, недосып – все это знакомые причины головной боли. Многие просто выпивают таблетку и продолжают жить дальше. Но не всегда головная боль или резкие скачки давления – это безобидные симптомы. Иногда они могут быть сигналом более серьезных проблем со здоровьем.

КОГДА СТОИТ НАСТОРОЖИТЬСЯ?


Если головная боль:

- ▶ появляется регулярно (чаще 2–3 раз в неделю);
- ▶ сопровождается тошнотой, рвотой, онемением конечностей или нарушением зрения;
- ▶ возникает внезапно и резко, как удар;
- ▶ не проходит после приема обезболивающего;
- ▶ сопровождается повышенным или пониженным давлением – это тревожный сигнал.

О СКАЧКАХ ДАВЛЕНИЯ

Гипертония и гипотония могут долгое время не давать ярких симптомов. Но при сильных колебаниях давления возможны:

- ▶ головная боль в затылке или висках;
- ▶ шум в ушах;
- ▶ потемнение в глазах;



- ▶ головокружение;
- ▶ ощущение «ватной» головы.

Если давление регулярно поднимается выше 140/90 или падает ниже 90/60, а особенно если появляются боли в груди, одышка или спутанность сознания – нужно обратиться к врачу.

ПОЧЕМУ ВАЖНО НЕ ЗАТЯГИВАТЬ?

Хроническая гипертония, мигрени и нарушения сосудистой регуляции могут привести к инсульту, инфаркту или другим опасным осложнениям. Раннее обращение к специалисту, обследование и корректное лечение помогут избежать серьезных последствий и сохранить качество жизни.

ЧТО МОЖНО СДЕЛАТЬ УЖЕ СЕЙЧАС:

- ▶ измеряйте давление хотя бы раз в неделю;
- ▶ следите за режимом сна и питьевым балансом;
- ▶ при тревожных симптомах – не откладывайте визит к терапевту или неврологу.

**Азимжон МАХАМЕДЖАНОВ,
начальник отделения поликлиники
Медицинского отдела ГУВД
г. Ташкента, капитан.**

ПРОДАЛ ГОЛОС – ПРОДАЛ БУДУЩЕЕ

С 15 июля в Узбекистане стартует второй сезон программы «Инициативный бюджет» — уникальной платформы, где каждый житель может предложить свой проект по благоустройству махалли и повлиять на его реализацию. Механизм прост: предложил, продвигай, голосуй. Однако за этой открытостью порой кроется изнанка — та, где искреннее участие заменяет формальность, а народная воля превращается в инструмент давления и манипуляции.



Вспомним сатиру: в марте прошлого года вышел клип, где в ироничной форме, показано, как людей уговаривают, а иногда и прямо заставляют голосовать за нужный проект. И если в песне это вызвало улыбку, то в жизни — это тревожный сигнал.

Ведь где заканчивается добровольность, там начинается искажение сути. Когда за голос предлагают пачку масла, бутылку газировки или 15 тысяч сумов — это не просто «мелкий стимул». Это первый шаг на скользкий путь. Сегодня вы отдали голос за условный детский парк, потому

что попросил сосед или знакомый, а завтра — за кого-то на выборах, потому что «так надо». А потом — и вовсе закрыли глаза на нарушения, потому что уже привыкли обменивать гражданскую ответственность на личную выгоду.

Принудительное голосование или продажа голосов — это не просто нарушение принципов справедливости. Это форма коррупции в зачатке. Коррупции, которая не начинается с чемодана денег, а с согласия человека обесценить свой выбор.


Министерство экономики и финансов уже преду-

редило: любые попытки давления и искусственно-го накручивания голосов — прямой путь к снятию проекта с конкурса. Но важно не только наказание. Важно понимание: если ты готов продать голос — ты готов продать и право на будущее. А коррупция, которую все мы так осуждаем, нередко вырастает как раз из таких «мелочей» — «ну что такого, просто проголосовал за чужой проект».

Голос — это инструмент. В том числе и борьбы с несправедливостью. Он не должен становиться предметом торга. Потому что когда честность подменяют выгодой, справедливость становится недоступной.

Именно сотрудники органов внутренних дел, каждый день сталкиваясь с последствиями безответственных решений и нарушений закона, как никто понимают цену честности. Потому сегодня особенно важно напоминать: не дайте себя использовать, не становитесь частью схем.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (14 июлдан – 20 июлгача)



Қўй. Хизмат жойида барча ишлар барқарор кечади, молиявий муаммолар анча вақтгача безовта қилмайди. Ҳаётини ўзгартиришни анчадан бери орзу қилаётганларни ёқимли янгиликлар кутмоқда. Бунга эришиш учун эса хато қилишдан чўчимаслик, ўзига бўлган ишончни орттириш лозим.



Бузоқ. Жамоатчилик ишларини шахсий ҳаётингиз билан бирга олиб боришга ҳаракат қилинг. Давр билан ҳамнафас бўлиб, мавжуд билимларни янгилари билан уйғунлаштиринг. Хизматдошлар учун умумий манфаатларни кўзловчи инсонга айланинг. Жиззакилик ва таъсирчанликни унутинг.



Эгизаклар. Кўпроқ изланишда бўлинг, имкон қадар такомиллашиш ва ривожланиш сари олға қадам ташланг. Ҳамкасблар орасидан муносиб дўстларни топишга интилинг, шунда ишдаги кўпгина масалаларнинг ҳал этилиши муваффақиятли кечади. Бу ҳафта қарз олмасликка, борларини эса қайтаришга ҳаракат қилинг. Дам олиш кунларини оила даврасида ўтказинг.



Қисқичбақа. Айни дам ҳаётингизда унумли ва жадал ривожланиш жараёни кетмоқда. Эски қарашларни ўтмишда қолдириш. Бошқарувни қўлга олиб, ҳаракатга киришинг, сиздан фойдаланишларига асло йўл қўйманг. Танқидни холислик билан қабул қилинг, йўл-йўлакай хатоларни тузатиб кетишга ўрганинг.



Арслон. Киришимли ва фаол шахс сифатида ҳаётингизга фойдали ва қизиқарли инсонларни жалб қиласиз. Бу ҳафта сизни янги ҳодисалар ва ўзгаришлар кутмоқда. Бу даврда ўзингизни яхши ҳис қиласиз, саломатлик билан боғлиқ муаммолар кузатилмайди.



Паризод. Ташаббускорлик ва ишдаги фаоллик ортидан барча молиявий масалаларни омадли ҳал қилишингиз мумкин. Бу ҳафта сиздан алоҳида кузатувчанлик ва диққат-этибор талаб этилади, шу сабабли зиддиятларнинг олдини олишга ҳаракат қилинг. Режага киритилмаган ортиқча харажатлар кузатилиши мумкин.



Тарози. Ҳафтанинг илк кунлари деярли ҳар жабҳада сизга омад кулиб боқади. Бу вақт ичида яхшигина даромадга эга бўлишингиз мумкин. Сешанба энг самарали кун бўлиб, фойдали ва истиқболли ишларга қўл урасиз. Бу даврда оилавий масалаларни ҳал этиш учун ҳам имконият туғилади.



Чаён. Режалаштирилган барча юмушлар кўнгилдагидек амалга ошади, бунинг учун сиздан шунчаки янада фаол ҳаракат қилиш талаб этилади, холос. Атрофдагиларга яхши кайфият улашинг, бошига ташвиш тушганларни қўллаб-қувватланг. Оила аъзоларингиз ва қадрдонларингизга эътиборли бўлишни унутманг.



Ўқотар. Бу ҳафта улкан иш режаларини тузишга ошиқманг, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг. Негаки бу ҳафтада касбий соҳангизга оид қийинчиликлар юзага келиши, пул йўқотишлар кузатилиши мумкин. Имкон қадар атрофдагилар билан зиддиятли муносабатларга борманг.



Тоғ эчкиси. Душанба куни истиқболли таклиф олишингиз, сешанбада эса эски танишингиз билан кутилмаган учрашув кузатилиши мумкин. Ҳафта ўрталарида бирон бир молиявий ўйинда иштирок этишни таклиф қилганларга ишонч билдирманг.



Қовға. Бу даврда фақат ўзингиз учун мақбул ва ёқимли бўлган ишлар билан шуғулланиб, қолганини кейинги ҳафта режасига киритинг. Иш жойингизда зиммангизга мураккаб вазифа юкланиши мумкин. Мазкур ҳафта иш билан боғлиқ тадбирларда иштирок этиш учун мақбул даврдир.



Балиқ. Келаётган ҳафтада барча йўналишларда муваффақият қозонасиз. Сиз ўз кучингизга ишонасиз ва буни атрофдагилар ҳам кўришни бошлайди. Ҳафтанинг иккинчи ярмида тақдирингизни ўзгартиришга қодир қарор олишингиз мумкин. Имкон қадар ўзлингизни асрашга, бошқаларнинг маслаҳати билан иш тутмасликка ҳаракат қилинг.

MARDLAR MANGU YASHAYDI

TINCHLIK UCHUN TIKILGAN JON

Joriy yilning 1-iyul kuni Andijon viloyati Xo'jaobod tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Abdurasul Abduvaliyev o'z xizmat vazifasini bajarish vaqtida mardlarcha halok bo'ldi. Bir oilaning tashvishini aritaman, ojiza ayolni himoya qilaman deb, uy egasi tomonidan nogahon qilingan hujum oqibatida hayotdan bevaqt ko'z yumdi.



Biz marhumning yaqinlaridan hol so'rash maqsadida uning xonadonida bo'ldik. Ta'ziyaga kelayotganlarning son-sanog'i yo'q. Ularning barchasi A. Abduvaliyevning birovga ozor bermagan, mo'min inson bo'lganligini aytib kuyundi.

«Kuchim yetarmikin, bardoshim yetarmikin?! Shunchalik ham mo'min bo'lasanmi, shunchalik ham yumshoq bo'lasanmi, aylanay bolam, chiroyligim bolam, jonim bolam!». Yurakning tub-tubidan chiqayotgan bu nidolar Oyto'tixon opaning qalb fig'onlari. Unda jondan aziz farzandidan ayrilgan bir onaizorning neki iztirobi bo'lsa, barchasi mujassam: alam, qayg'u, dard... Odamlardan farzand haqidagi yaxshi gaplarni eshitib, oz bo'lsa-da, ko'ngli taskin topishiga qaramay, onaizorning yuragi ado bo'lgan. Marhumning opa-singillari nigohidagi mung esa ko'ngilni chandon o'rtab yuboradi.

– Abdurasulim uch qizim orasida yolg'iz o'g'il edi, –

deydi Oyto'tixon Abduvaliyeva. – Xo'jayinim olamdan o'tgach, onam yolg'iz qoldi, yonida bo'lishim kerak deb, harbiydagi ishidan ariza yozib, uyga qaytdi. Kelib, ichki ishlar sohasiga hujjat topshirdi. Mahallaga ishga tayinlandi. O'sha kuni ham ertalab odatdagidek, «Duo bering, onajon, men ishga ketdim» deb xizmatga otlandi. Kechqurun shu xabarni eshitdik.



Sassiz bir nuqtaga tikilib o'tirgan marhumning turmush o'rtog'i Dilrabo Sotvoldiyevadan hol so'radik.

– Universitetda birga tahsil olganmiz. Kursdosh edik. Besh yil bir-birimizga

ko'ngil qo'yib, keyin oila qurdik. 13 yil birga yashagan bo'lsak, biron mar-ta qattiq gapirib, dilimga ozor bermadi. Men turmush o'rtog'imdan mingdan-ming roziman. Ilohim, jannatlarda uchrashish nasib etsin.

Abdurasul Abduvaliyev uch nafar farzandning otasi edi. To'ng'ichi Abdurahmonbek endigina 6-sinfga ko'chgandi, Sanobarxon 8 yoshda, kenjatoy Muhammadiy esa atigi ikki yarim yosh. Doim dadasi-ning quchog'ida o'tiradigan Muhammadiy osmonga qarab, «Otam, uchib ketdi, jannatga ketdi» deydi. Ba'zida otaning suratlarini qo'lga olib, mehr bilan o'pa boshlaydi. Balki, go'dak sog'inchingning ifodasi shudir. Yaqinlari Abdurasulni farzandlarini yer-u ko'kka ishonmas edi, deb ta'riflashadi. U nafaqat farzandlari, balki onasi, ahli ayoli va opa-singillariga ham juda g'amxo'r bo'lgan.

«Xizmat vazifasidagi zalvorli mas'uliyatga qaramay, mening sog'lig'im haqida

qayg'urishga ham ulgurardi. Hech qaysi iltimosimni yerda qoldirmasdi. Borlig'im edi, qosh-ko'zlari qop-qora chiroyligim, jonim bolam». Onaizor bir muddat sukunatga cho'mgach, shu



so'zlarni aytib yana bo'zlay boshladi.

Xizmat vazifasini bajarish vaqtida mardlarcha halok bo'lgan profilaktika inspektori, katta leytenant Abdurasul Abduvaliyevning oila a'zolariga kuni kecha Prezident farmoniga muvofiq, «Jasorat» medali Andijon viloyati hokimi tomonidan topshirildi.

Ma'lumot o'rnida, Abdurasul Abduvaliyev 2011-yilda Andijon davlat universitetini tamomlagach, Xo'jaobodagi transport kollejida dars berdi. 2015-yilda Qo'qon shahridagi harbiy qismda 5 yil xizmat qilgach, tug'ilib o'sgan Xo'jaobodga qaytib, ichki ishlar sohasiga o'tdi. 2020-yildan vafotiga qadar mahalla profilaktika inspektori sifatida namunali ish tashkil qilib keldi. Hamkasblarining aytishicha, Abdurasul fuqarolar tinchligi va xavfsizligi yo'lida kecha-kunduz tinim bilmay, sidqidildan xizmat qilgan. Shuning uchun bugun uni xotirlab, haqqiga duo qilish uchun minglab odamlar kaftini ochmoqda. Ilohim, boqiy dunyo saodati nasib aylasin!

Nigoraxon TO'XTAMATOVA, o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Mard o'g'lon xotirasiga bag'ishlanadi

Burgut kabi yovqur o'g'lon, Onasiga yolg'iz qalqon, Tinchlik uchun tikilgan jon Posbon edi, Abdurasul.

Tengdoshlari ichra nodir, Hayotda ham vazmin, og'ir, Yurt desa, har ishga qodir Arslon edi, Abdurasul.

Saf boshida yurib ildam, Qadamlari dadil, shaxdam, Yovga tik boquvchi o'ktam Polvon edi, Abdurasul.

Adashganga berib saboq, Yaxshilarga do'st-u o'rtog, Mudom bedor, mudom uyg'oq Vijdon edi, Abdurasul.

Bevaqt ketgan umri uvol, Oy bo'lib to'lmagan hilol, Dili toza, qo'li halol Inson edi, Abdurasul.

Asli yurt ishiga kelgan, Qancha yovuzlarni yenggan, So'nggi dam ham tinchlik, degan O'g'lon edi, Abdurasul.

Elda sharaf-shoni bilan, Burchin o'tab qoni bilan, Bergan aziz joni bilan Osmon endi, Abdurasul.

Qirq yilda ham o'rni to'lmas, Farzandlarin ko'zi kulmas, Vatanda nomi hech o'lmas, Armon endi, Abdurasul.

Xurshidbek RO'ZIYEV, podpolkovnik.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir

o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV

mayor

Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Temir QURBONOV

Yuliya CHAYKINA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1826.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44587 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.